



БФ «ЛСП-ФОНД»

# Mehnat muhojirining cho'ntak kitobchasi

2017  
2018



## **Mundarija**

<b>Chegaradan o'tish va migratsiya kartasini to'ldirish .....</b>	<b>2</b>
<b>Migratsiya ro'yhatiga turish.....</b>	<b>2</b>
<b>Peterburgda ishga joylashish .....</b>	<b>7</b>
Ishlash uchun berilgan patent.....	7
Rus tili, Rossiya Federatsiyasi tarixi va qonunchiligi asoslari bo'yicha test .....	11
Tibbiy ma'lumotnoma .....	13
Sankt-Peterburgda ish qidirish va ishga joylashish .....	14
Mehnat shartnomasini tuzish .....	17
Fuqarolik va yuridik shartnomasini tuzish .....	19
Mehnat huquqlarini himoya qilish .....	21
<b>Rossiyada hayot: Adaptatsiya uchun foydali maslahatlar .....</b>	<b>24</b>
Ijaraga uy olish.....	25
Tibbiy yordam .....	29
Politsiya bilan aloqa qilish .....	32
Ijtimoiy yordam.....	37
Rossiyadagi chet el fuqarolarining farzandlarining ta'limi.....	39
Bolalarni bolalar bog'chasi va maktabga qabul qilish tartibi .....	39
Rossiyada o'zini tutish madaniyati.....	41
<b>Rossiya Federatsiyasining migratsiya bo'yicha qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik .....</b>	<b>43</b>
<b>Rossiya Federatsiyasida vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma olish.....</b>	<b>47</b>
<b>Foydali manzillar va telefonlar .....</b>	<b>51</b>

## **Chegaradan o'tish va migratsiya kartasini to'ldirish**

Rossiya Federatsiyasiga kirish uchun chet el fuqarosi amaldagi xorijiy pasportga ega bo'lishi kerak. Agar pasportning muddati tugagan bo'lsa, chegarani kesib o'tishga ruxsat berilmaydi.

Bu qoida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarolari uchun ta'luqli emas, ular o'z mamlakatlarining ichki pasporti bilan Rossiya chegarasini kesib o'tish huquqiga egalardir.

MDH mamlakatlari fuqarolari **Rossiyaga kirib kelganlarida, kamida 3 oyni qoplagan sug'urta varaqchasini (polisini) olib kelishlari shart.**

Bu varaqchani o'z mamlakatingizda sotib olinishingiz kerak. Rossiyada esa, har qanday sug'urta tashkilotlarida, yirik aeroportlarda va temir yo'l stantsiyalarida, shuningdek, "Rossiya pochta" ofislarida sotib olinishingiz mumkin. Sug'urta varaqchasida Rossiya hududida sug'urta kompaniyasining tibbiy yordam berish shartlari va shu kompaniyaning telefon raqamlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

## **Migratsiya kartasi**

Xorijiy fuqarolar RF hududiga kirganlarida, migratsiya kartasi beriladi. Migratsiya kartasini rus tilida to'ldirishingiz va chegara nazorati xodimlariga topshirishingiz kerak. Pasportingizda ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarga asoslanib, lotin tilida to'ldirishingiz kerak. Migratsiya kartasi ikki qismdan iborat bo'ladi: har ikki qismini ham to'ldirib, "A" qismini chegara nazorat xodimiga topshirasiz, "B" qismini o'zingiz bilan olib qolasiz.

Migratsiya kartasini juda ehtiyotkorlik bilan, xatolarsiz to'ldirish kerak. Rossiya hududiga kirish maqsadini to'g'ri ko'rsatish juda muhimdir. Aks holda siz rasmiy ishga joylasha olmay qolasiz. Siz ishlash uchun Rossiyaga kelgan bo'lsangiz, kelishdan maqsad "ish" degan yozuvni belgilashingiz lozim.

Rossiya Federatsiyasi hududiga kirish fakti pasportingiz va migratsiya kartasiga chegara nazorati xodimlari tomonidan maxsus muhr qo'yish bilan tasdiqladi. Ikkala hujjatga ham muhr qo'ydingiz! (Agar siz Rossiya Federatsiyasiga ichki pasportingiz bilan kirsangiz, muhr

migratsiya kartasiga qo'yiladi). Muhrda chegarani kesib o'tkaningizning aniq sanasi ko'rsatilishi kerak, aks holda sizni noqonuniy kirganlikda ayblashlari mumkin.

## **Ogohlantirish**

### **Soxta migratsiya kartalari**

Bilish muhim bo'lgan narsalar: faqatgina chegarada migratsiya kartasini berish qonuniydir.

Qo'ldan migratsiya kartalarini sotib olishingiz mumkin emas.

Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining (МВД) xodimlari hujjatlarni tekshirish vaqtida soxta hujjatlarni aniqlashadi.

Soxta migratsiya kartasini qo'llagan shaxs 5 yil muddatga (№19.27 Ma'muriy javobgarlik kodeksining 1, 3-moddasi asosida) Rossiya Federatsiyasi hududida kirish man qilinadi, (7000 rubl miqdorigacha) ma'muriy jarima solinib, Federatsiyadan haydash bilan jazolanadi. Soxta hujjatlar yordamidan foydalanish jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin (№327 Jinoyat kodeksining 3-moddasi asosida).

Migratsiya kartasi muhim hujjatdir! Rossiya Federatsiyasi hududida yashash vaqtida pasport bilan birgalikda olib yurishingiz zarur.

## **Migratsiya kartasining yo'qolishi**

Migratsiya kartasi yo'qolgan taqdirda, siz, 3 ish kuni ichida pasport va samalyotda uchib kelgan chiptangiz bilan, Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati ГУ МВД РФ Migratsiya bo'yicha bo'limining yashagan eringizga yaqin joylashan filialiga murojaat qilishingiz kerak. Ushbu hujjatlaringizni tekshirib, siz migratsiya kartangizning nusxasini BEP-UL berishlari shart.

Sankt-Peterburg shahrida migratsiya kartasini Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati ГУ МВД РФ Migratsiya bo'yicha bo'limida tiklash mumkin. Bo'limning manzili: м. «Площадь Александра Невского», ул. Красного Текстильщика, д. 15, tel. 8 (812) 318-06-26.15, tel. 8 (812) 318-06-26.

### Samaloyt chiptasi

Sizga Rossiya Federatsiyasiga samalyotda uchib kelganingiz to'g'risidagi chiptangizni yoki o'rin taloningizni saqlab qo'yishingizni tavsiya qilamiz. Agar migratsiya kartangizni yo'qotib qo'ysangiz, u Rossiya hududiga qonuniy ravishda kirganingizni tasdiqlovchi hujjat bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasiga kirkandan so'ng quyidagilarni nusxasini tayyorlang:

- pasport - shaxsiy ma'lumotlaringiz va kirish muhrlari bo'lgan sahifalarini;
  - migratsiya kartangizni;
- Kelajakda nusxalar kerak bo'ladi.

### Migratsiya ro'yxatiga turish (registrasiya)

Rossiyaga kelgan har bir chet ellik fuqaro **7 ish kuni ichida**, kelgan joyida **migratsiya ro'yxatidan o'tishga majbur**.

Ayrim davlatlarning fuqarolari uchun boshqa muddatlar belgilanadi:

- Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (Armaniston, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iziston) mamlakatlari fuqarolari uchun - **30 kun**;
- Tojikiston fuqarolari uchun - **15 kun**.



Muhojirlarni ro'yxatga olish tartibi va muddatlari, maxsus holatlarni hisobga olgan holda o'zgartirilishi mumkin: ommaviy sport musobaqalari mobaynida tartibni saqlash uchun, chet el fuqarolari **kirib kelganlaridan boshlab 24 soat ichida** migratsiya ro'yxatidan o'tishlari talab qilinadi.

Bunday talab Sankt-Peterburgda **2018 yil 25 maydan 25 iyulgacha** ishlaydi. E'tiborli bo'ling!

Chet el fuqarosini migratsiya ro'yxatga qo'yishni, chaqiruvchi tomon amalga oshiradi. Chaqiruvchi tomon bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- siz ishlab, yashamoqchi bo'lgan regionda doimiy ravishda ro'yxatdan o'tgan Rossiya fuqarosi
- Rossiya Federatsiyasi hududida doimiy ravishda yashovchi chet el fuqarosi

- yuridik shaxs, ya'ni, ish beruvchi tashkilot, mehmonxona, notijorat tashkilot.

Siz yashayotgan turar-joy manziliga yoki sizning ishxonangiz manziliga ro'yxatga turishingiz mumkin.

**Muhajirlik ro'yxatiga turish borasida nazoratning kuchaytirilgani sababli, xaqiqiy yashash joyingizda ro'yxatdan o'tishingizni tavsiya qilamiz!**

Sizga quyidagi hujjatlar kerak bo'ladi:

- pasport,
- pasport nusxasi (birinchi va chegaradan o'tkaningiz xaqidagi muhr qo'yilgan sahifasi),
- migratsiya kartasi,
- migratsiya kartasining nusxasi.

**Migratsiya ro'yxatiga qanday turish mumkin:**

1) Chet el fuqarosining mamlakatga kirib kelgani haqidagi maxsus ariza-xabarnomasini **to'ldiring**. Xabarnomani quyidagi manzildan olishingiz mumkin: <https://78.mad.pq/ms>

Xabarnoma varaqchasi bepul tarqatiladi:

- Rossiya ГУ МВД boshqarmasi idoralarida;
- Ko'p funktsional davlat xizmatlarini ko'rsatish markazlarida (МФЦ);
- Rossiya Pochtasi bo'limlarida.

Varaqcha ikki qismdan iborat. To'ldirgandan so'ng bitta qismini YBM ГУ МВД РФ xodimlariga topshirasiz, ikkinchisini esa o'zingiz bilan olib qolasiz. Xabarnomaning har ikkala qismida turar joy manzili, qabul qiluvchi tomonning shaxsiy ma'lumotlari va chet el fuqarosining shaxsiy ma'lumotlari ko'rsatilishi shart. Qabul qiluvchi shaxs-fuqaro o'z imzosini, qabul qiluvchi tashkilot esa boshqaruvchining muhri va imzosini qo'yadi.

2) Rossiya Pochtasi orqali chet el fuqarosi, to'ldirilgan xabarnomani, pasportining nusxasini, Rossiya Federatsiyasi fuqarosi (chaqiruvchi taraf) pasportining nusxasini, migratsiya kartasining nusxasini Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati YBM ГУ МВД РФ ga **jo'natadi**.

Siz xabarnomani МФЦ ga yoki УВМ ГУ МВД РФ ga **shaxsan o'zingiz** bepul **topshirishingiz** mumkin. Migratsiya ro'yxatiga turish uchun МФЦda ariza topshirsangiz, murojaatnomani МФЦ xodimlari sizning ishtirokingizsiz Migratsiya xizmati bo'limiga jo'natishadi.

3) МФЦ, ГУВМ МВД РФ yoki Rossiya Pochtasi xodimlari tomonidan xabarnoma varaqchasining sizga qaytarib beradigan qismiga, xujjatlarni qabul qilib olganliklari xaqidagi belgini qo'yib **sizga topshirishadi**.

Siz yashayotgan rayonda joylashgan МФЦ bo'limining ma'lumot telefonlarini va manziliini 8 (812) 573 90 00 nomeri orqali *yoki gu.spb.ru/mfc* veb-saytida bilishingiz mumkin.

Ro'yxatdan o'tish jarayoni chegarani kesib o'tgan kundan boshlab 90 kungacha bo'lgan muddatgagina beriladi va RF hududida ishlash huquqini bermaydi.

## **Qonuniy ravishda ishlash uchun ishlash patentga ega bo'lish kerak.**

Ishlash patenti uchun НДФЛ to'langani migratsiya ro'yhatining muddatini uzartirilganini anglatmaydi!

Ishlash uchun berilgan patent asosida chet el fuqarosi Rossiya Federatsiyasidagi registratsiyasini uzaytirib turishi kerak, lekin muddat mamalakatga kirgan kundan 1 yildan oshmasligi kerak. Ro'yxatini yangilash uchun siz yoki sizni chaqirgan tomon, Rossiya Federatsiyasi УВМ ГУ МВД ning siz yashaydigan hududidagi bo'limiga murojaat qilishingizlar kerak. O'zingiz bilan migratsiya kartasini, migratsiya ro'yxatiga turganlik to'g'risidagi xabarnomani va shaxsiy daromad solig'ini (patentni) registratsiyaning muddatigacha to'laganligingiz xaqidagi kvitansiyani olib borib topshirishingiz kerak.

**!** Xorij fuqarolari uchun maxsus, РФ ga kirish va Sankt-Peterburgda qolish qoidalarini buzgan shaxslarga 5 ming rubldan 7 ming rublgacha jarima solinadi. Shuningdek, 5 yil davomida Rossiya hududiga kirish man qilinib, mamlakatdan xaydalish ehtimoli ham bor (ст. 18.8 ч.3 и ст. 19.27 ч.3 КоАП РФ asosida).



Migratsiya ro'yxatidan o'tish to'g'risidagi habarnomaning nusxasini chiqartirib oling - bu sizga hujjatingizni Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg va Leningrad viloyatining УВМ ГУ МВД bo'limida yo'qotib qo'ysangiz qayta tiklashingizga yordam beradi.

## Peterburgda ishga joylashish

### Ishlash uchun berilgan patent

Rossiya Federatsiyasi hududida qonuniy ravishda yuridik shaxslar qo'lida (tashkilot, yakka tadbirkorlar) yoki jismoniy shaxslar (xonadon egalari) qo'lida ishlashingiz uchun **siz ishlash patentini olishingiz kerak.**

Patentsiz ishlasangiz 5000 rubldan 7000 rublgacha jarima solinadi va Rossiya Federatsiyasi hududidan xaydash bilan jazolanadi.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (Armaniston, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iziston) ga a'zo davlatlar fuqarolaridan ish patentini olish talab qilinmaydi. Mehnat va fuqarolik shartnomasi Rossiya Federatsiyasi hududida ularning vaqtinchalik yashash ro'yhatlarini uzaytirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Esingizda bo'lsin: Rossiyada ishlash va patent olish **siz 18 yoshga to'lganingizdan keyingina mumkin!**

Sankt-Peterburg va Leningrad viloyatida ishlash patentini tayyorlaydigan yagona tashkilot bu Rossiya МВД ФГУП "Pasport va viza xizmati"ning Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha filialidir. Filial manzili: ул. Красного Текстильщика, д. 15, лит. А, тел.: 8 (812) 318- 01-22. Bu erda ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lanadi.

Rossiyada patentni tayyorlashda pulga yordam ko'rsatadigan ko'plab vositachilar (tashkilotlar yoki shaxslar) mavjud. Ehtiyot bo'ling, o'zingizni aldashlariga yo'l qo'ymang:

- **“xususiy shaxslar” yordamiga murojaat qilmang** - tanish yurtdoshlar, brigadirilar, vositachilar, shaxsiy tanish-bilishlar yordamidan foydalanmang, chunki, odatda aynan shular soxta hujjatlarni tayyorlashlari mumkin;

• Agar siz vositachilik tashkilotida hujjatlarni tayyorlashga yordam so'ragan bo'lsangiz, **xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilganiga ishonch hosil qiling**. Ehtiyotkorlik bilan shartnomani o'qib chiqing. Shartnomada xizmatlar narxi va turi (RF ning Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati УВМ ГУ МВД bo'limiga hujjatlarni topshirishda yordam, deb) ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarish mas'uliyati tashkilot zimmasida ekanligi, tashkilotning muhri va boshqaruvchining imzosi qo'yilishi kerak;

• **Hujjatlaringizni qo'lingizga olishingizdan oldin, xizmat ko'rsatildi deb yozilgan qog'ozlarni imzolamang**. Ehtiyot bo'ling, bunday so'zlar asosiy shartnoma matnida ham yozilgan bo'lishi mumkin;

• Vositachilik xizmatlari uchun pul to'laganingizda, tashkilot **pul olganligini tasdiqlovchi chek berishi kerak**. Cheklardagi narx to'g'ri ko'rsatilganligiga ishonch hosil qiling;

• Vositachilar yordamidan foydalansangiz ham, **rus tili, Rossiya tarixi va qonunchilik asoslari xaqidagi testlardan va tibbiy ko'rikdan SHAXSAN o'zingiz o'tishingiz kerak**. Pasport va viza xizmatiga hujjatlaringizni topshirayotkaningizda, barmoq izlar-ingizni ro'yxatdan o'tkazdirishingiz (daktiloskopiya) va suratga tushishingiz kerak bo'ladi. Agar vositachi bularni talab qilmasa, u sizni aldayokan bo'ladi;

• **Hech bir tashkilot yoki shaxs sizning nomingizdan hujjatlar-ingizni olish huquqiga ega emas**. Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati УВМ ГУ МВД bo'limida SHAXSAN hujjatlaringizni olishingiz lozim.

**Patent faqat Rossiyaning berilgan hududidagina ish kuchiga ega.**

Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati, Rossiya Federatsiyasining boshqa-boshqa hududlari bo'lib hixoblanadi. Sankt-Peterburgda berilgan ish patenti, Leningrad viloyatida kuchga ega emas!

Patent chet el fuqarosi kasb-hunar bazasining ruscha ta'riflagichi bo'yicha mutaxassisligini aniqlaydi [garant.ru/1548770/#block\\_1000](http://garant.ru/1548770/#block_1000).

Patent amal qilish muddati mobaynida, RF ning ko'rsatgan hududida patentda ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha ishlash huquqini beradi.

Faqat patentda ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha ishlashingiz mumkin. Ko'rsatilgan mutaxassislikdan boshqa mutaxassislik bo'yicha ishlasangiz 5000 rubldan 7000 rublgacha jarima belgilanishi mumkin.

#### **Patentni olish uchun quyidagilar zarur:**

- patent olish uchun ariza (ariza shaklini va uni to'ldirish misolini Rossiya ГУ МВД ning Migratsiya ishlari bo'yicha idorasida, yoki [www.78.mvd.pfm/ms](http://www.78.mvd.pfm/ms) veb-saytida olishingiz mumkin);
- pasport va pasport nusxasi;
- migratsiya ro'yxatidan o'tish to'g'risidagi xabarnoma va uning nusxasi;
- notarial tasdiqlangan pasportning rus tiliga tarjimasi - tarjimoni bor notarial idoraga murojaat qiling;
- kirishdan maqsad degan erida "ish" deb ko'rsatilgan va muhr bosilgan migratsiya kartasi, va uning nusxasi;
- tibbiy ma'lumotnoma va VICH-infektsiyasi yo'qligi to'g'risidagi guvohnoma - tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin maxsus tibbiy muassasada beriladi;

Tojikiston fuqarolari Tojikistondan olib kelingan 086-shaklidagi ma'lumotnomani topshirishlari shart.

- ixtiyoriy tibbiy sug'urta (polis);
- rus tili, Rossiya tarixi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi asoslarini bilishingizni tasdiqlovchi hujjat;

Patent olish uchun chet el fuqarolari rus tili, Rossiya tarixi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi asoslari bo'yicha imtihondan o'tishlari kerak.

- 3000 rubl miqdorida patent olish uchun to'langan kvitansiya (ИДФЛ). To'lovni Rossiya Federatsiyasi Jamg'arma Bankining (Sber Bankning) istalgan filialida amalga oshirishingiz mumkin.

Soliq miqdori Rossiya Federatsiyasining hududlarida farq qiladi, va har yili har bir viloyatning hukumati tomonidan belgilanadi. Ehtiyotkorlik bilan o'zgarishlarni kuzatib boring! 2017-2018 yillari ish patenti

uchun soliq narxini Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati УВМ ГУ МБД ning veb-saytda 78.мвд.рф/ms topishingiz mumkin.

**!** **2018 yildan boshlab** Sankt-Peterburgda (78-region) patent uchun to'lanadigan soliq miqdori o'zgarishi mumkin. O'zgarishlardan xabarador bo'ling!

Patentga hujjatlarni **faqat SHAXSAN** amalga topshirishingiz zarur. Patent, ariza va zarur hujjatlar topshirilgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida beriladi.

Ishlash patent chiqqanligi haqida ma'lumotni ГУ МБД РФ Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati Migratsiya ishlari bo'yicha bo'limining rasmiy veb-saytida - [www.78.mvd.rf/ms](http://www.78.mvd.rf/ms) bilishingiz mumkin.

Soliqni to'lagan ish patentingiz asosida, migratsiya ro'yxatingiz muddatini uzaytirib turishingiz zarur.

**!** **Patent uchun oldindan to'lagan soliq, Migratsiya ro'yxatini uzaytirmaydi! Shuning uchun, patentingizning tugash muddatigacha, migratsiya ro'yxatingizni ham uzaytirib turing!**

Ish patenti asosida ishlash uchun, har bir keyingi ish oyiga **qat'iy belgilangan avans solig'ini** (ИДФЛ) to'lashingiz kerak.

Agar siz har oyda 3000 rubl miqdorida ИДФЛ solig'ini to'lasangiz, patent to'langan vaqt davomiga avtomatik ravishda uzartiriladi. O'z vaqtida to'lov amalga oshirilmasa, kechiktirilgan birinchi kundan boshlab patent kuchi bekor qilinadi.

E'tibor bering: Hisob, hujjatda ko'rsatilishi bo'yicha, ish uchun patent olingan kun sanasidan boshlanadi. To'lov har bir to'langan oy tugashidan kamida bir kun oldin o'tkaziladi. Masalan, 13 martda nihoyasiga etadigan ish patenti uchun 11 apreldan kechiktirmay, 13 apreldan 12 maygacha bo'lgan muddatga to'lanishi kerak.

Ish patenti uchun soliqni har oy yoki oldindan 12 oy muddatga bir vaqtning o'zida to'lashingiz mumkin.

Siz amalga oshirgan to'lovlarni tasdiqlovchi cheklarni saqlab qo'ying.

**Patent olingandan keyin, 2 oy ichida siz Rossiyaning ГУ МВД boshqarmaligining Migratsiya masalalari bo'yicha bo'limiga ishxonangiz (yuridik shaxs yoki yakka tadbirkor) bilan tuzgan mehnat shartnomaning bir nusxasini pochta orqali jo'natishingiz kerak. Aks holda patentingiz ish kuchini yuqotadi!**

Patent muddati tugashi bilan Rossiya Federatsiyasidan chiqib ketishingiz yoki patentingizni yangilashingiz kerak.

Bundan tashqari, patentingiz muddati tugashiga **10 ish kuni qolgan-da**, ariza yozib patentingizni yangilashingiz mumkin. Buning uchun siz Rossiya ГУ МВД Migratsiya masalalari bo'yicha bo'limiga ariza berishingiz kerak. Agar siz jismoniy shaxs ko'lida ishlayotgan bo'lsangiz, patentni uzaytirishni so'rab yozgan arizangizga, jismoniy shaxs bilan ish borasida kelishib olganingiz to'g'risidagi xabarnomani va xo'jayinining yozgan rasmiy talabnomasini qo'shib topshirishingiz kerak.

Patentni faqat 1 marta 12 oy muddatiga uzaytirishingiz mumkin xolos.

Patent muddatini uzaytirish bo'yicha ko'proq ma'lumotni Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati ГУВМ МВД РФ Migratsiya masalalari bo'yicha bo'limida bilishingiz mumkin. Bo'lim manzili: ул. Красного Текстильщика, д. 15, лит. А, тел.: 8 (812) 318- 01-22. Yoki МВД ning rasmiy veb-saytida *78.мвд.рф/ms* ham tanishib chiqishingiz mumkin.

**Patentni yo'qotsangiz yoki yirtilib qolsa, eskib ketsa** Rossiya УВМ ГУ МВД ning Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha Migratsiya bo'limiga, patentingizning nusxasini so'rab murojaat qilishingiz mumkin. Murojaatnomaga pasportingiz va uning nusxasini, migratsiya kartangiz va uning nusxasini, patentingiz uchun to'langan НДФЛ soliq cheklarini qo'shib topshirasiz.

## **Rus tili, Rossiya Federatsiyasining tarixi va qonunchilik asoslari bo'yicha test**

Rus tili, Rossiya tarixi va qonunchiligi asoslaridan test topshirish mehnat muhojirlariga ish patentini olish uchun majburiy bo'lib hisoblanadi.

Testdan o'tkaningiz maxsus sertifikat bilan tasdiqlanadi va bu sertifikat 5 yil davomida kuchga ega bo'ladi.

Rus tili testi 5 qismdan iborat bo'ladi: o'qish, yozish, leksika va grammatika, tinglab tushunish va so'zlab berish. Siz [russian-test.com/tests/test\\_for\\_migrant\\_workers](http://russian-test.com/tests/test_for_migrant_workers) saytida tahminiy test yordamida imtihonga tayyorlanishingiz mumkin.

Siz rus tilini, Rossiya tarixi va qonunchiligi asoslarini bilishgizni tasdiqlovchi sertifikatni maxsus test markazlarida olishingiz mumkin. Buning uchun sizga quyidagilar kerak bo'ladi:

- pasport va pasport nusxasi;
- pasportning notarial tasdiqlangan rus tiliga tarjimai (tarjimoni bor notarial idoralarda amalga oshirsa bo'ladi);
- Mamalakatga kirganligingizni tasdiqlovchi muhr bosilgan migratsiya kartasi.

Siz test topshirishingiz uchun kvitansiya olishingiz va narxini xohlagan bankingizda to'lashingiz kerak bo'ladi. Test xizmatlarining narxlarini test markazlarida va ularning saytlarida topishingiz mumkin.

Imtihon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-qism. Rus tili (1 soat 20 daqiqa) - grammatika, yozish, o'qish, gapirish, tinglash.

2-qism. Rossiya tarixi (35 daqiqa) - 20 ta test savollari.

3-qism. Rossiya qonunchiligi asoslari (35 daqiqa) - 20 ta test savollari.

Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha vakolatdan o'tgan barcha test markazlarining ro'yxatini Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati УВМ ГУ МВД ning veb-saytida topishingiz mumkin.

Imtihonga "Rus Test Consortiumi" ning [testcons.ru](http://testcons.ru) saytida tayyorlaning.

[testmigr.ru](http://testmigr.ru) saytida taxminiy test topshirib, bilimlaringiz darajasini aniqlab olishingiz mumkin.

Agar tilni yaxshi bilmasangiz, rus tili testiga tayyorlovchi kurslar yordam berishi mumkin. Bunday kurslar odatda pulga bo'ladi.

**Agar sizda quyidagilar bo'lsa sinovdan o'tishingiz shart emas:**

- 1991 yil 1 sentyabrgacha bo'lgan vaqt ichida, SSSRda olingan bitiruv diplomi;
- MDH mamlakatlarining ta'lim muassasalaridan olingan, rus tili darisini o'qiganligini ko'rsatuvchi diplom. Diplomingizning notarial tasdiqlangan rus tiliga tarjimai va diplom Rossiya ta'lim standartlariga to'g'ri kelishini ko'rsatuvchi sertifikat.

Agar siz oldin rus tili testini topshirgan bo'lsangiz va amaldagi sertifikatka ega bo'lsangiz, rus tili testini takrorlamasdan, Rossiya Federatsiyasi taxti va qonunchiligi asoslari fanlaridangina test top'shirasiz.

**Tibbiy ma'lumotnoma**

Ishga ruxsatnoma yoki patent olish uchun siz tibbiy ko'rikdan o'tishingiz kerak. Ko'rik chet el fuqarolari giyohvandlik, VICH, sil kasalligi, ba'zi bir jinsiy yo'l bilan o'tadigan infeksiyalar kabi kasalliklarga ega emasligiga ishonch hosil qilish uchun o'tkaziladi.

Tibbiy ko'rik xorijiy fuqaro ishlayotgan hududning maxsus tibbiyot muassasasida o'tkaziladi. Tibbiy komissiyadan o'tish uchun sizga quyidagilar kerak:

- pasport va pasport nusxasi;
- pasportning rus tiliga notarial tasdiqlangan tarjimai (tarjimoni bor notarial idorada);
- mamlakatga kirganingiz xaqidagi muhri bor migratsiya kartasi va uning nusxasi;
- migratsiya ro'yxatidan o'tkaningiz to'g'risidagi xabarnoma (registratsiya) va uning nusxasi.

Tibbiy ko'rikdan o'tish uchun pul to'lashingiz kerak bo'ladi.

Tibbiy ko'rik xulosasi 5 ish kunidan keyin chiqadi.

Siz tibbiy ko'rikdan УВМ ГУ МВД РФ ning *78.мед.пцп/мigr/мед\_spb veb-saytida* ko'rsatilgan atayin belgilangan muassasalarda o'tishingiz mumkin.

Tojikiston fuqarolari, Tojikistonda chiqarilgan 086-shakldagi tibbiy guvohnomani olib kelishlari shart. Ehtiyot bo'ling, ushbu sertifikat sizni tibbiy ko'rikdan o'tishingizdan ozod qilmaydi.

E'tibor bering - tibbiy tekshiruvdan o'tishdan oldin quyidagi dorilarni qo'llash taqiqlanadi: kodelak; kodipront; kodterpin; nurofen plus; pentalgin, pentalgin-H; sedal-M; sedalgin neo; terpinkod; tetralgin; koffetin; corvalol; valokordin; fenobarbital. Agar siz ushbu dori vositalaridan muntazam ravishda foydalansangiz, shifokorlarga bu haqda oldindan ayting.

Iste'molchilik va xizmat ko'rsatish sohasida (kafelar, bolalar bog'chalari, maktablar mehmonxonalar va boshqalarda) ishlash uchun **tibbiy kitobcha** tayyorlash kerak. Tibbiy kitobchani tibbiy ko'rikdan o'tgan muassasada pul to'lab tayyorlash mumkin.

### Sankt-Peterburgda ish qidirish va ishga joylashish

Rossiyada noqonuniy ishlash, jiddiy jinoyat hisoblanadi. Siz o'z huquqlaringiz va ma'suliyatlaringizni bilishingiz va mavjud xatarlardan o'zingizni himoya qilishingiz kerak.

Ish izlayotganingizda, sizga butun Rossiya vakansiyalari ko'rsatilgan rasmiy bazadan foydalanishingizni maslahat beramiz:

*trudvsem.ru* - Rossiyada ishlash: Mehnat va ish bo'yicha federal xizmatning Rossiya bo'ylab bo'sh ish joylari bazasi.

Ishga joylashishda sizga yordam beradigan oddiy maslahatlar:

- **qonuniy ishlang: ishlash patenti** sizga, jismoniy shaxs qo'lida yoki tashkilotda ishlash huquqini beradi, lekin **siz va ish beruvchi tomon o'rtasida so'zsiz mehnat shartnomasi tuzilishi shart**. Bu hujjatning nusxasini boshlig'ingiz 3 kun ichida Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati YBM ГУ МБД ga jo'natishi kerak bo'ladi. Siz ham shaxsan yoki pochta orqali, YBM ГУ МБД ga patent olgan kuningizdan boshlab, 2 oy ichida mehnat shartnomasi nusxasi topshirishingiz shart;

- **sizga ish beruvchi tomonni yahshi bilishingiz kerak**: Siz ishlaydigan tashkilotning nomini va manzilini, o'zingizning boshlig'ingizning lavozimi, ismi, familiyasi, telefon raqamini bilishingiz kerak; bu ma'lumot sizning huquqlaringizni tasdiqlash va ish haqini to'lanishini talab qilishda foydali bo'ladi;



- **vositachilar bilan aloqa qilmang:** ehtiyot bo'ling, vositachilar sizdan bepul ishchi sifatida foydalanishlari mumkin;

- **ish beruvchi bilan shartnoma tuzing:** fuqarolik va yuridil yoki mehnat shartnomasi tuzilsa, huquq va majburiyatlaringizni aniq bilasiz, aniq qaerda, qachon va kimga ishlaganingizni aytib bera olasiz. Shu bilan shartnoma sizga huquqlaringizni himoya qilish imkonini beradi. Ish beruvchingiz siz bilan shartnoma tuzishi va ushbu shartnoma nusxasini sizga berishi shart.

- **ish haqi miqdorini va to'lov shartlarini ochiq muhokama qilib, aniqlab oling:** Sizga qancha pul to'lashlari kerakligini va qanday ish qilishingiz kerakligini bilishingiz kerak. Ish haqi miqdori mehnat shartnomasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Sizning nomingizga ochtirilgan maxsus bank kartochkasida, yoki shaxsan buxgalterlik idorasida imzo qo'yib pul olishingiz kerak. Buxgalteriyaga siz hisob-kitob varaqchasini topshirishingiz kerak. Har qanday pul bilan qilingan munosabatlar hujjatlashtirilishi kerak. Agar sizdan ishxonangiz qarz bo'lsa, boshlig'ingizdan tilxat yozdirib oling;

- **imzo qo'yishingiz kerak bo'lsa, hujjatdagi har bir narsani diqqat bilan o'qing** va sizga ham bitta nusxasini berishlarini so'rang: agar sizga biror narsani imzolashingizni so'rasha, masalan, shartnoma, hisobot kartasi, kvitansiya, rozi bo'lsangizgina imzolashingiz kerak. Agar imzolashingiz kerak bo'lgan qog'oz sizga shaxsan tegishli bo'lsa, nusxasini so'rang. Siz ularning shartlariga rozi bo'lmasangiz, hujjatlarni imzolamaslikka haqingiz bor;

- **Ishxonangiz yoki xo'jayiningizga hujjatlaringizni saqlab qo'ygani bermang:** Sizdan boshqa hech kim sizning pasportingizni, ishlash patentingizni, shartnomaning sizga berilgan nusxasini va boshqa hujjatlarni, telefoningizni va harakat erkinligingizni cheklab qo'yishga haqqi yo'q. Pasportingizni olib qo'yish va erkinligingizni cheklash, jiddiy jinoyatdir: bu holda politsiyaga murojaat qilishingiz kerak!

- **Boshlig'ingizning huquq va majburiyatlarini bilishingiz kerak:** tashkilotga doimiy ravishda ishga kirayotganingizda, boshliq siz bilan mehnat shartnomasini tuzishi shart. Agar sizda mehnat kito-bchasi bo'lmasa, yangi ochisi kerak. Mehnat shartnomasining bir

nusxasini sizga berishi kerak, shuningdek, siz oyiga ikki marta oylik ish haqini olishingiz kerak. Bundan tashqari, sizda ta'tilga chiqish va kasal bo'lib qolsangiz, haq to'lanadigan ta'tilga chiqish imkoningiz bo'lishi kerak;

• **yordam so'rang:** huquqlaringizni himoya qilish uchun siz, politsiyaga, prokuraturaga, Davlat mehnat inspeksiyasiga, sudga, Inson huquqlari bo'yicha komissariatiga, Rossiya Federatsiyasi УВМ ГУ МВД va ijtimoiy tashkilotlarga murojaat qilishingiz mumkin. Siz yashayotgan hududda, barcha tashkilotlarning aloqalarini aniqlab olib, saqlab qo'ying! Kerakli aloqalarni "Foydali manzillar va telefonlar" bo'limida topishingiz mumkin.

Sankt-Peterburgda ishga joylashish uchun zarur yordam, davlat idoralarida bepul beriladi:

#### **СПб ГАУ «Центр трудовых ресурсов»**

- xorijiy fuqarolarga Sankt-Peterburgda ishga joylashish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayorlashga yordam beradi;
- Sankt-Peterburg hududida xorijiy fuqarolarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi;
- tibbiy ko'rikdan o'tish, kasbiy malaka imtihonlari, rus tili, Rossiya Federatsiyasi tarixi va qonunchiligi asoslari testi, tibbiy sug'urta olish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatadi.

Адрес: 198207, Россия, Санкт-Петербург, Трамвайный пр., д. 12, к. 2

Телефон: +7 (812) 758-36-34

Muhojirlar uchun telefon liniyasi: 8-800-333-7097

Сайт: [spbgauctr.ru](http://spbgauctr.ru)

Эл. почта: [gauctr@rspb.ru](mailto:gauctr@rspb.ru)

#### **СПб ГАУ «Центр занятости населения Санкт-Петербурга»**

- xorijiy fuqarolarga to'g'ri keladigan ish topishga yordam beradi;
- kasbiy yo'nalish, mehnat sohasini va ish joyini tanlashda, kasbiy ta'lim olishda muhojirlarga yordam beradi;
- bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etadi.

Адрес: 190000, Россия, Санкт-Петербург, ул. Галерная, д. 7  
Телефон: 8 (812) 571-00-41  
Электронная почта: GAU@rspb.ru  
Сайт: [r21.spb.ru](http://r21.spb.ru)

Sankt-Peterburg tumanlaridagi ishga joylashish idoralarida, xorijiy mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha Rossiya va xorijiy fuqarolar uchun Maslahat berish punktlari mavjud bo'lib, tegishli ishlarni izlashda yordam ko'rsatadi.

Sankt-Peterburg ish bilan ta'minlash tashkilotlarining to'liq ro'yxatini quyidagi saytda topishingiz mumkin: [r21.spb.ru/empl/about/info.htm](http://r21.spb.ru/empl/about/info.htm)

### **Mehnat shartnomasini tuzish**

Mehnat shartnomasi - bu ishlovchi bilan ish beruvchi tomon o'rtasida-gi ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydigan kelishuvdiz (56 TK РФ 15- va 16-moddasi asosida). Shartnoma asosida, ishlovchi ma'lum ishlarni bajarishga va ishxonaning qoidalariga itoat qilishga majbur; Ish beruvchi esa, ish bilan ta'minlashga, mehnat sharoitini yaratishga va ish haqini o'z vaqtida to'lashga majburdir.

Sizning vazifalaringiz ko'satilgan va ikki tomon imzolagan mehnat shartnomasining nusxasini olishingiz kerak.

Mehnat shartnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak (PФ TK 57-moddasiga muvofiq):

- xodimning ism-sharifi va pasport ma'lumotlari;
- ish beruvchining ism-sharifi va yuridik manzili;
- xodimning ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisida ko'rsatilgan ma'lumotlar;
- xodimning lavozimi va majburiyatlari;
- ish joyi, ya'ni tashkilotning haqiqiy manzili;
- ish boshlangan sana, mehnat shartnomasining amal qilish muddati;
- to'lov shartlari, ish haqi va boshqa qo'shimcha haqlar;

To'liq ish kuni asosida ishlayotkan xodimning ish haqining hajmi, hududda belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan oz bo'lishi mumkin emas. Sankt-Peterburgda 1yanvar, 2018 yilgacha bu pul miqdori, bir oyga 17000 rublni tashkil etadi.

- ish haqini to'lash tartibi va muddatlari;

Qoidaga binoan, ish haqi oy davomida ikki marta to'lanadi: avans (oylik ish haqining yarmi) o'zining o'rtasida va o'zining oxirida, yoki keyingi o'zining 14 chi kunigacha asosiy oylik (PФ TK 136- moddasi asosida).

- ish vaqti;

Ish kuni 8 soatdan oshmasligi kerak, ish haftasi esa - 40 soatdan. Belgilangan soatdan ortiq vaqtga qo'shimcha haq to'lanadi (TK PФ 152,153 va154 – moddalari asosida).

- xodimlarni majburiy ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlash talablari - yillik ta'til olish (kamida 28 ish kuni), kasal bo'lib qolgan holda dam olish (bolnichnye) va baxtsiz voqealardan sug'urta qilish puli to'lanadi (TK PФ 1156 183, 327,3 – moddalari asosida).
- boshqa tashkilotda ish bajarish mumkinchiligi.

Rossiyada xodimlarni vaqtincha ishlatish (mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan ish beruvchilarni boshqa tashkilotlarga jo'natish) taqiqlangan.

Faqatgina xususiy mehnat agentliklari sifatida ro'yxatdan o'tkan ishxonalar, o'z ishchilarini boshqa tashkilotlar yoki jismoniy shaxslar xizmatiga jo'natish huquqiga egadirlar. Buning uchun ulardan quyidagilar talab qilinadi:

- chet ellik ishchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasida, uchinchi tomon uchun ham ish bajarish imkoniyatini ko'rsatish;
- uchinchi shaxs qo'lida ishlash uchun yuborilgan hollarda, xodim bilan qo'shimcha bitim tuzish;

Agar siz xususiy mehnat agentliklariga murojaat qilsangiz, bunday shartlarning sizning mehnat shartnomangizda ko'rsatilganligiga ishonch hosil qiling.

**Ish beruvchining majburiyatlari** (TK PФ ning 22-moddasiga muvofiq):

- kechiktirmasdan va ushlab qolmasdan ish haqini to'lash;
- kasbiy xavfsizlik standartlariga javob beradigan ish joyi bilan ta'minlash;

- Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik yashash muddatini, ishlash patenti muddati asosida uzaytirib turish;
- tashkilot tomonidan qabul qilingan maxsus qoidalar to'g'risida xabardor qilish;
- sizga etkazilgan zararni qoplash – ish vaqtida shikastlansangiz, yoki baxtsiz hodisa yuz bersa;
- mehnat jarayonida chet ellik ishchilarni, ya'ni sizni kamsitmaslik.

**Sizning majburiytlaringiz:**

- shartnoma shartlarini batafsil bajarish;
- boshlig'ingizni ishdan bo'shashingiz to'g'risida 14 kun oldin yozma ravishda ogohlantirish;
- mehnat tartib-qoidalari va xavfsizlik tartib-qoidalariga rioya qilish;
- ish beruvchining mol-mulki va asboblarni nazorat qilish;
- odamlarning hayoti va sog'lig'iga tahdid soladigan vaziyat yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda, ish beruvchiga xabar berish;
- mehnat va tibbiy kitobchalarni, ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisini olishda faol ishtirok etish;

**Sizning quyidagilarga xaqqingiz bor (TK PΦ 21-moddasi asosida):**

- hayotingiz va salomatchiligingiz uchun xavfli ishlarni bajarishdan bosh tortishga;
- mehnat shartnomasi, to'lov kartochkasi, ish haqini to'lash shartlari va boshqa ma'lumotlarni 3 ish kuni ichida sizga taqdim etilishlarini talab qilishga;
- o'z huquqlaringizni himoya qilish uchun Davlat mehnat inspeksiyasi, prokuratura va sudga murojaat qilishga.

Mehnat qonuniga ko'ra, sizning ish haqingiz to'lanmagani uchun yoki sizning mehnat shartnomangizni bekor qilishganidan so'ng 3 oy o'tmasdan, sudga murojaat qilishingiz mumkin. Ehtiyot bo'ling va zarurat tug'ilganda, sudga o'z vaqtida murojaat qiling (TK PΦ 392-moddasi asosida).

Ish shartnomasining misoli: [www.migrantinfo.spb.ru](http://www.migrantinfo.spb.ru) ning "Ma'lumotnoma" bo'limida.

**Fuqarolik va yuridik shartnomasini tuzish**

Ishga joylashtirish uchun fuqarolik va yuridik shartnomasi, ya'ni xizmatlarni taqdim etish to'g'risidagi bitimni tuzish kerak. Bunday

shartnomani jismoniy shaxs bilan ham, tashkilot bilan ham tuzish mumkin. Misol uchun, qurilish shartnomasi, xizmat ko'rsatish shartnomasi va bosh shartnomalar bo'ladi. Bunday bitimga binoan siz ish haqi emas, balki bajarilgan ishlarning miqdoriga qarab ishingiz uchun mukofot, ya'ni pul olasiz.

Bunday shartnomalarni imzolanish uchun rus tilini yaxshi bilishingiz va shartnomaning matnini to'liq tushinishingiz talab qilinadi. Siz qabul qilishni xohlamagan shartlari bor shartnomani imzolamang. Siz bunday shartnomada teng xuquqli ishtirokchisiz va o'z shartlaringizni taqdim etisingiz kerak!

Muhojirlarni ko'pincha fuqarolik va yuridik shartnomalar asosida autsorsing kompaniyalari (masalan, tozalik ishchilarini, yordamchi xodimlarini) ishga oladi va o'z ishchilarini boshqa ishxonalarga, masalan qurulish ishlari, yoki gipermarketlarga ijaraga beradi.

Ish beruvchi imzolagan fuqarolik va yuridik shartnomasining nusxasini olishingiz shart.

Fuqarolik-huquqiy shartnomada quyidagilar aks ettirilgan bo'lishi kerak:

- xodimning ism-sharifi va pasport ma'lumotlari;
- ish beruvchining ism-sharifi va yuridik manzili;
- ish joyi, ya'ni tashkilotning haqiqiy manzili, obyektning manzili;
- ish boshlash sanasi, ishlash / xizmat ko'rsatish muddati;
- ish joylari;

Ishning miqdori aniq belgilanganligiga ishonch hosil qiling – oylik ish haqingiz, ish hajmiga bog'liq bo'ladi.

- shartlari, ish tartibi va ish haqi miqdori;

Ish haqini to'lashning shartlariga e'tibor berishni unutmang, shartnoma bajariladigan ishlarning vaqtini, sifatini va miqdorini va boshqa qo'shimcha shartlarni ko'rsatgan bo'lsdi.

- mukofotlash tartibi va muddatlari;
- haq to'lash kafolati;
- ish beruvchining ma'suliyati va majburiyatlari - masalan, ish vositalarini taqdim etish va boshqalar;

- xodimning ma'suliyatlari va majburiyatlari;
- ish beruvchining imzosi va muhri, ishlovchining imzosi;
- shartnomaning raqami va u tuzilgan sana.

Fuqarolik va yuridik shartnomada ko'rsatilgan ishlarning bajarilgani, ishlovchi bilan ish beruvchi o'rtasida **hech qanday o'zaro da'vo qolmaganligini tasdiqlovchi akt** tuziladi. Akt ikki nusxada tuziladi va imzolanadi, bittasi ish beruvchi tomonda, ikkinchisi esa siz bilan qoladi.

Ko'pincha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi aktning shartnomaning matniga ish beruvchi tomon qo'shib qo'yadi. **Ehtiyot bo'ling!** Ish haqini olishdan oldin bajarilgan ishlar to'g'risidagi aktga imzo qo'ymang. Aktning bir nusxasi siz bilan qolishi kerak.

Esingizda bo'lsin, fuqarolik va yuridik shartnoma shartlari Rossiya qonunlariga zid bo'lishi mumkin emas! Ish beruvchi asossiz jazolamashligi, soliq solmasligi, majburlab ishlatmasligi, xavfsizlik shartlariga amal qilishi, to'lovni bermay qo'yishi noqonuniy. Shartnomada ko'rsatilmagan barcha hollarda ish beruvchi Rossiya qonuniga, shu jumladan mehnat kodeksiga muvofiq harakat qilish kerak.

Fuqarolik va yuridik shartnoma bo'yicha ish beruvchilar ko'pincha ishchilarga kafillik berish va javobgarlikdan o'zlarini ozod qilishga harakat qiladilar. Agar siz doimiy ravishda bitta tashkilotda ishlasangiz, ishxonangiz siz bilan mehnat shartnomasini tuzishi kerak.

Sizning huquqlaringiz:

- hayotingiz va sog'lig'inigiz uchun xavfli bo'lgan ishlarni bajarishdan bosh tortish;
- sizni shartnoma, to'lov-varaqalari, ish haqi muddati va miqdori to'g'risidagi boshqa guvohnomalar bilan ta'minlashlarini talab qilish;
- o'z huquqlaringizni himoya qilish uchun davlat mehnat inspekt-siyasiga, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi ГУВМ МВД ga, Prokuratura va sudga murojaat qilish.

### **Mehnat huquqlarini himoya qilish**

Agar siz Rossiyaga ishlash uchun kelgan bo'lsangiz, o'zingizning huquqlaringiz va mas'uliyatlaringizni bilsangiz, xatarlardan o'zingizni himoya qila olasiz.

### **Ish huquqlarini himoya qilish**

Siz ishga kirganingizdan keyin 3 kun ichida mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Mehnat munosabatlari mehnat muhojirlarining ish joyiga kirishi bilan boshlanadi ( TK PΦ 67-moddasi).

Ishlovchi 5 kundan ortiq ishlasa (TK PΦ 66-moddasi) mehnat shartnomasi asosida mehnat kitobchasini ochtirishi shart.

Ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Ishlovchi ishga joylashish haqidagi buyruqning nusxasini olish huquqiga ega (TK PΦ 68 - moddasi).

Shartnoma tuzilmagan bo'lsa, ishlagan vaqtigiz uchun ishlatgan tomon pul to'lashi shart (TK PΦ 67,1 - moddasi).

### **Qo'shimcha ishdan himoya qilish.**

Qo'shimcha ish – ishxonangiz hujjatlashtirmasdan, boshqa tashkilotlarga sizni ishga jo'natishi (TK PΦ 56,1 - moddasi) taqiqlanadi.

Faqatgina xususiy mehnat agentliklarigina o'z xodimlarini boshqa tashkilotlarga yoki shaxslarga ishlagani jo'natishlari mumkin. Quyidagi shartlar asosida:

- mehnat shartnomasida uchinchi shaxs bilan ishlash imkoniyati ko'rsatilsa;
- uchinchi tomon qo'lida ishlashga yuborilsa, siz bilan qo'shimcha shartnoma tuzilsa.

Agar siz xususiy ish bilan shug'ullanadigan agentlikka murojaat qilsangiz, bu shartlar shartnomada ko'rsatilganligiga ishonch hosil qiling.

### **Noqonuniy ishlashdan himoya qilish**

TK PΦ 76 – moddasiga binoan, ishdan sababini izohlamasdan sizni ishdan xaydash taqiqlanadi. Ishdan xaydash, siz ishlagan oxirgi oy ish haqini to'lamaslikka sabab bo'lishi mumkin emas.

TK PΦ 84.1 - va 140 – moddalari asosida mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ishxonangiz siz talab qilganingizdan keyin, qolgan oylingizni to'lab berishga majbur. Sizni ishdan bo'shatish uchun ishxonaning majburiy ravishda ishdan bo'shatish to'g'risidagi qarorni chiqaradi. Qarorning bir nusxasi bilan mehnat kitobchangizga ishdan



bo'shatilganingiz to'g'risidagi belgini qo'yib, sizga qaytarib berishlari shart.

### **Ish haqingiz kechiktirganda mehnat huquqlaringizni himoya qilish**

TK PΦ 142 - moddasi 2-qismiga binoan, agar ish haqini to'lash muddati 15 kundan ortiq vaqt ichida kechiktirilgan bo'lsa, siz boshlig'in-gizni yozma ravishda xabardor qilib, ishni to'xtatib qo'yishga haqlidir-siz.

TK PΦ 142-moddasiga binoan, ishxona ish haqi kechiktirilsa, javobgar bo'ladilar.

### **Noqonuniy jarimalarga qarshi himoya**

TK PΦ 192-moddasiga binoan, siz ishdagi majburiyatlaringizni bajar-masangiz, sizni jazolashi yoki belgilangan tartibda ishdan bo'shatishi mumkin. Mehnat majburiyatlarini bajarmaganligingiz uchun sizga jarima solishi noqonuniydir!

### **O'z-o'zini himoya qilish**

Xodim o'z huquqlarini mustaqil ravishda himoya qilish huquqiga ega. PΦ ning 380-moddasiga ko'ra, ish beruvchining va ish beruvchining vakillari ishchilarning mehnat huquqlarini himoya qilishdan va ularni mehnatga oid nizolarni bartaraf qilishdan bosh tortishga haqlari yo'q.

TK PΦ 62 – moddasiga ko'ra, siz ishga tegishli hujjatlarni (mehnat shartnomasi, buyruq, qo'shimcha shartnomalar, to'lov varaqalari va boshqalarni) talab qilish huquqiga egasiz. Ish beruvchi ushbu nusx-alarini sizga, ariza yozganingizdan keyin 3 ish kuni ichida berishga majburdir.

### **Kasaba uyushmasining yordami**

Har bir ishchi kasaba uyushmasiga a'zo bo'lish va o'z mehnat huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda uning ko'magidan foydalanishi mumkin.

### **Mehnat qonunlariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati**

TK РФ 353 va 356 - moddalariga ko'ra, mehnat qonunchiligiga rioya qilish yuzasidan nazorat, Davlat mehnat inspeksiyasi va prokuratura bo'yniga yuklatilgan.

Xorijiy fuqarolarni ishga olayotkanda ish beruvchi tomon qonunbuzarlik qilsa, Rossiya Federatsiyasi MVD ning Migratsiya ishlari bo'yicha bo'limi ishxonani javobgarlikka tortishi mumkin.

2 oy yoki undan ko'proq vaqt davomida ish haqi to'lanmasa, siz Rossiya Federatsiyasi Tergov qo'mitasi tergov bo'linmasiga murojaat qilishingiz mumkin. Ish haqining to'lanishi uzoq vaqtga kechikishi, jinoyat hisoblanadi (Jinoyat kodeksining 145,1 - moddasi).

### **Sud himoyasi**

TK РФ ning 392 – moddasiga binoan, ishdan bo'shatilgan yoki ish kitobchasi berilgan kundan boshlab 1 oy ichida, shuningdek, huquqlaringiz buzilgan kundan boshlab 3 oy ichida sudga shikoyat qilish huquqiga egasiz.

## **Rossiyada hayot: Adaptatsiya uchun foydali maslahatlar**

### **Ijaraga uy olish**

Rossiyada ijara olish uchun asosiy variantlar:

- ko'chmas mulk agentliklari orqali uy-joyni mustaqil ravishda ijaraga olish;
- bevosita uy egalaridan ijaraga olish;
- ish joyingiz orqali yotoqhonalarga yoki ko'p qavatli uylarga joylashishingiz.

### **Turar joy qidirish**

Turar joy topish harakatida, siz ko'plagan kvartira yoki xona ijaraga berilishi xaqidagi reklamalarni ko'rasiz. Lekin odamning o'zi ijaraga uy topishi ancha qiyin, ayniqsa yirik shaharlarda, arenda xaqi qimmat.

Sankt-Peterburg shahrida (kommunal harajatlardan tashqari) ijaraga uy-joy olishning o'rtacha narxlari:

- xona: 10000-15000 rubl / oyiga
- 1 xonalik kvartira: 16000-26000 rubl / oyiga
- 2 xonalik kvartira: 19000-36000 rubl / oyiga
- 3 xonalik kvartira: 23000-43000 rubl / oyiga

Odatda, turar-joylarni maxsus idoralarga murojaat qilish orqali ijara-ga olish mumkin.

Ishonchli turar-joy agentliklari o'z vakolatxona, ya'ni ofislariga ega bo'lishadi va o'z belgilari ostida ochiq faoliyat ko'rsatishadi. Bu idoralar xodimlari, o'z ism-shariflarini yashirishmaydi, ular bilan bog'lanishingiz uchun o'zlarining maxsus ish kartalarini berishadi. Agentlik bilan siz xizmat ko'rsatish borasida alohida shartnoma tuzasiz. Agentlik xodimlari sizga oson variantni tanlashingizda va turar-joyni borib ko'rib, egasi bilan uchrashishingizda, sizga hamrohlik qilishadi va yordam berishadi. Hodimlar sizning savollaringizga javob berishadi, turar-joy egasi bilan mulk ijarasi haqidagi kelishuvga imzo qo'yilgandan **keyingina** haq olishadi.

Ehtiyot bo'ling - uy-joy bozorida siz josuslarga duch kelishingiz mumkin! "Axborot xizmatlarini" taklif qiluvchi va juda arzon narxda ijara taklif qiluvchi firmalar xizmatlaridan foydalanmang: aks holda pul yo'qotib uy-joysiz qolishingiz havfi bor!

Turar-joy agentliklarining xizmatlari qimmat: uy-joy va ijara shartnomasini tuzish uchun ular oylik ijara to'loviga teng miqdorda haq olishadi. Bugungi kunda bevosita uy egalari tomonidan ijara-ga berish xaqida Internetda reklama qiluvchi saytlardan foydalanib, to'g'ridan to'g'ri e'lon qilish ko'p uchraydi. Agar bunday xizmatlardan foydalanishni ma'qul ko'rsangiz, o'zingiz uy egalari bilan muzokaralar olib borishingiz kerak bo'ladi.

### Uy-joyni ijaraga olish shartnomasi

Uyni ijaraga berish to'g'risidagi bitimga **ijara shartnomasi** qo'shiladi. Shartnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kvartiraning egasining ism-sharifi, uning pasport ma'lumotlari va telefon raqami;
- ish beruvchining ism-sharifi, uning pasport ma'lumotlari va telefon raqami;
- uy egaligini tasdiqlovchi hujjatning nomi, raqami va sanasi;

Uyni ijaraga beruvchi shaxs, uy egasi bo'lsa - u sizga uy-joyni sotib olish shartnomasini va davlat ro'yxatidan o'tkanlik xaqidagi sertifikatning asl nusxalarini ko'rsatishi kerak. Ijaraga beruvchi shaxs uy egasi bo'lmasa, bu hujjatlar bilan birga, uy egasidan uyni ijaraga berish xuquqini beruvchi vakolatnomani, shuningdek, o'zining va uy egasining pasport ma'lumotlarini taqdim qilishi kerak.

- ijaraga beriluvchi joyning aniq manzili, uning maydoni;

Turar joyning qaysi qismi ekanligi - kvartira yoki xona ekanligi aniq ko'rsatilishi kerak. Agar siz kommunal tutrar-joyida, xona ijaraga olgan bo'lsangiz - qo'shnilaringiz bor yoki yo'qligini so'rang, sizni ular bilan tanishtirishlarini so'rang.

- uy-joyni ijaraga olish muddati;
- ijara haqining aniq miqdori;
- ijarachilar soni, ularning ism-shariflari;

Shartnomada siz bilan qancha odam va kimlar yashashi mumkinligini aniqlab oling, - uyning egasi tanimaydigan odamlarni yashaganini kirgizishga haqqingiz yo'q!

- har bir keyingi oy uchun turar-joy to'lovining shartlari;

Siz o'z vaqtida uy-joy uchun haq to'lashingiz kerak! Har oyning qaysi kunidan siz haq to'lashingiz kerakligini belgilatib olishingiz kerak.

- kommunal to'lovlarini amalga oshirish shartlari;

Siz ijaraga berayotgan shaxs bilan tuzgan shartnomada suv, gaz, elektr energiyasi, markazlashgan isitish usuli, telefon va Internet xizmati uchun kim va qaysi muddat ichida haq to'lashi kerakligini aniqlab oling.

- xonadagi barcha mol-mulkni inventarizatsiya qilish va unarning holati;

Shartnomada uyda joylashgan va ijarachiga tegishli narsalar - mebel, maishiy texnika va shu kabi narsalarni ko'rsatish kerak. Mol-mulk borligini va ularning ish holatini belgilash, ishlamay qolsa kim tuzatishi kerakligini, ulardan qay miqdorda foydalanish mumkinligini ham belgilab olish lozim.

- garovning miqdori va uni qaytarish muddatlari;

Uy-joy ijarasi uchun siz ijaraga beruvchiga **garov xaqi** berishingiz kerak bo'ladi. Garov, siz uydagi narsalarni buzib qo'ysangiz, ijara xaqini to'lamasangiz, kommunal xizmatlarni to'lamasangiz, keltirilgan zararlarni qoplovchi miqdorda belgilanadi. Garov puli odatda oylik ijara xaqi miqdoriga teng va ijara muddati tugaganda sizga qaytarib beriladi. Garov ijara shartnomasi qoyidagilarga rioya qilishingizni kafolatlovchi vosida bo'lib hisoblanadi, shartnomani buzsangiz uy egasi gavor pulini sizga qaytarib bermaydi. Garov pulini berish va qaytarish shartlarini albatta aniqlab olining!

- ijaraga olish uchun tilxat (raspiska) shakli;

Tilxatsiz pulni hech qachon o'tkazmang - pul bilan qilingan barcha operatsiyalar qog'ozda muhurlanishi kerak.

- ijaraga oluvchining huquqlari va uy-joy ijarasi tugatilishi shartlari.

Uyni ijaraga olishni to'xtatish istagi xaqida uy egasi, 1 yoki 2 hafta oldindan ogohlantirilishi kerak. Ijara shartnomasiga yahshi e'tibor bering, uy egasi sababsiz yoki oldindan ogohlantirmasdan sizni ko'chaga chiqarib qo'yishga hech qanday haqqi yo'q!

Uy-joyni ijaraga berish borasidagi shartnoma 2 nusxada to'ldirilgan, ulardan biri sizda bo'lishi kerak.

Yolg'onchilardan ehtiyot bo'ling – imzo qo'yilgan shartnomaning bir nusxasini sizga bergunlariga qadar hech kimga hech qanday pul bermang!

### **Ijaraga berilgan turar joylarda yashash qoidalari**

Siz ijaraga olgan joyni boshqalarga ijaraga berishga xaqqingiz yo'q, buni faqat uy egasi qilishi mumkin. Ijaraga olingan joyda yashovchi barcha fuqarolar sizning shartnomangizda ham yozilgan bo'lishi kerak!

Yashash gigiena me'yorlariga rioya qiling - har bir kishi uchun kamida 6 kvadrat metr yashash maydoni bo'lishi kerak! Bu me'yorlarni buzish ko'plagan muammolarga sabab bo'lishi mumkin: qo'shnilar va mol-mulk egasi bilan nizolar, politsiya tekshiruvlari, salomatligingizni yomonlashishi, kvartira mulkining buzilishidir.

Xonaning yashash maydoni turar-joy maydonining yig'indisidir. Masalan, maydoni 72,4 kvadrat metr bo'lgan uch xonali kvartirada, 46 kvadrat metr yashash maydoni mavjud (19 kvadrat metr + 13 kv.m + 14 kv.) va bu yerda 7 kishidan odam yashamasligi kerak.

Siz yashayotgan xonadagi barcha o'zgarishlar xo'jayin bilan kelishilgan xolda bo'lishi kerak - siz didingiz va istagingizga qarab ta'mirlash ishlari, yoki eskini olib, yangi narsa o'rnatish kabi ishlarni uy egasidan ruxsat olmay qilish xaqqiga ega emassiz.

Ijaraga olgan uyingizda siz tinchlik saqlashingiz shart. Ish kunlarida soat 22 dan soat 7 gacha, dam olish va bayram kunlari – soat 22 dan soat 12 gacha tinchlikni buzish taqiqlanadi!

Kvartira egasi sizni ro'yxatdan o'tkazishi kerak. Ro'yxatga turmasdan yashaganingiz uchun sizga Moskva, Moskva viloyati, Sankt-Peterburg, Leningrad viloyati hududida 5000 rubl miqdorida jarima solinadi va 5 yilga Rossiya hududiga kirish taqiqlanib, mamlakatdan chiqarib yuboriladi.

Sizga ijaraga olingan joyda yashash xuquqini uy-joy ijarasi xaqidagi shartnoma, sizning yashash joyingizdagi manzilga ro'yxatga turganingiz, ya'ni migratsiya ro'yxatidan o'tkaningiz to'g'risidagi xabar beradi.

Agar sizga ijara shartnomasi yo'q yuni ijaraga olish taklif qilishsa, bu xavflidir. Negaki, uy egasi yoki vositachi har qanday vaqtda sizning ijara muddatingiz tugamasidan oldin, garov pulini qaytar-masdan uyidan chiqarishi mumkin!

### **Sankt-Peterburgdagi yotoqxonalar va turar-joy uylari**

Xorij fuqarolarini ishga oluvchi ishxonalar odatda, xodimlarini yotoqxonalar yoki ko'pqavatli uylarga joylashtirish bilan ta'minlaydilar.

Chet el fuqarolarini turar-joy uylariga joylash bilan Sankt-Peterburgda СПбГБУ "Davlat uy-joy mulkdorlari shirkatlarining Sankt-Peterburgdagi boshqaruv mahkamasi" shug'illanadi.

*<http://gosfondspb.ru/>*

Manzil: 191002, Санкт-петербург, ул. Достоевского, д.6

Turar joy binolarini ijaraga berish to'g'risida ma'lumot: telefon / faks +7 (812) 764-7379.

Fuqarolar oldindan navbat olishlari uchun telefon +7 (812) 404-6065.

Sankt-Peterburg shahrida ishlayotgan yotoqxonalarda turar joy taklif qiluvchi ko'p tashkilotlar bor. Bunday tashkilotlarni internetda osongina topish mumkin. Ijara shartnomasini imzolagunga qadar, ushbu yotoqxonada yoki kichik mehmonxonalarda yashash shartlari bilan batafsil tanishib chiqing.

Ishxonada yotoqxonasida yashashingiz afzaldir, chunki bu sizga haqqoniy yashash joyi bo'yicha rasmiy ro'yxatdan o'tish va migratsiya ro'yhatiga turish imkonini beradi. Bundan tashqari, yotoqxonalar qo'riqlanadi va toza saqlanadi. Biroq, yotoqxonada xonani emas, yotoq joyini ijaraga ola olasiz. Bu xonani ijaraga olishga nisbatan arzonroq bo'ladi, taxminan kuniga 200 rubldan.

### **Tibbiy yordam**

Chet el fuqarolari tibbiy yordam olishlari uchun Ixtiyoriy tibbiy sug'urta (polis) (ДМС) olishlari kerak. ДМС polisini sug'urta tashkilotlarining ofislarida to'g'rilashlari mumkin.

ДМС polisi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- poliklinikada tezkor yordam ko'rsatish;
- shoshilinch va tezkor tibbiy yordam;
- shifoxonada shoshilinch yordam;
- ДМС shartnomasida ko'rsatilgan boshqa xizmatlar.

Rossiyada ДМС polisini to'g'rilash uchun, sug'urta tashkilotiga quyidagi hujjatlarni topshirishingiz kerak:

- pasport va uning notarial tasdiqlangan tarjimasini;
- migratsiya kartasi va uning nusxasi;
- ro'yhatga turganingiz haqidagi xabarnoma (registratsiya) va uning nusxasi.

ДМС polisi sug'urta tashkilotlari ofislarida, yoki «Rossiya pochta» ofislarida beriladi.

Agar siz ДМС polisini ishlagan joyingiz orqali to'g'rilyadigan bo'lsangiz, sizga tashkilotingiz boshlig'idan imzolash huquqini beradigan ishonchnoma (doverennost) kerak bo'ladi.

Siz ДМС sug'urtasi qoplaydigan tibbiy xizmatlar hajmini o'zingiz tanlashingiz mumkin, sug'urta bahosi, tanlangan xizmatlar hajmi bilan bog'liq bo'ladi.

**Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YII) a'zo davlatlarning fuqarolari, majburiy tibbiy sug'urta (OMC) ni olish uchun murojaat qilishlari mumkin.**

Armeniyalik, Belarus, Qozog'istonlik va Qirg'izistonlik ishchi fuqarolar, OMC sug'urtasini to'g'rilash uchun, tibbiy sug'urta tashkilotini tanlashlari kerak. Odatda, buni yashash joyingizdagi poliklinikada tanlaysiz.

OMC sug'urtasini to'g'rilash uchun ariza topshiryotganda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi fuqarosi quyidagi hujjatlarni topshirishi kerak:

- pasport yoki shaxsingizni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- СНИЛС;
- mehnat shartnomasi;
- registratsiya yoki uning nusxasi.

RFda mehnat qilayotgan YII fuqarolariga OMC polisi **qog'oz shaklida beriladi va amal qilish muddatiga ega bo'ladi**. Bu muddat kalendar yilining ohirigacha bo'lishi mumkin, lekin mehnat shartnomasining muddatidan oshmaydi.



OMC polisini quyidagilar ham olishi mumkin:

- RF da vaqtinchalik istiqomat qilish uchun ruhsatnoma (PБП) si bo'lgan fuqarolar;
- RF da istiqomat qilish uchun ruhsatnoma (ВНЖ) ga ega bo'lgan fuqarolar;
- vaqtinchalik boshpana olish to'g'risidagi guvohnomasi bor fuqarolar;
- qochqinlar.

Majburiy tibbiy sug'urta, yani OMC to'g'risida batafsil ma'lumotni Sankt-Peterburg shahrining majburiy tibbiy sug'urta bo'yicha Hududiy jamg'armaining saytida topishingiz mumkin:

<https://spboms.ru/>

Sizga ДМС yoki OMC polisini bergan sug'urta tashkilotining telefon raqamlarini va nomini eslab qoling. Agar siz polisingizni yo'qotib qo'ysangiz, sug'urta kompaniyasiga murojaat qilib tiklashingiz yoki shoshilinch tibbiy yordam zarur bo'lganda ro'yxatdan o'tkazilgan polisingiz borligini tasdiqlashingiz mumkin.

Sug'urta polisini yo'qotib qo'yishingiz ehtimoli bor bo'lsa, uning nusxasini chiqartirib olish foydalidir.

**Tezkor tibbiy yordam, baxtsiz hodisalar, tug'ruq, jarahotlar, zaharlanishlar va boshqa insonning hayoti va sog'ligiga tahdid soladigan holatlarda BEPUL ko'rsatiladi.**

Agar sizga Sankt-Peterburgda tibbiy yordam ko'rsatishdan bosh tortishsa, sog'liqni saqlash qo'mitasiga murojaat qilishingiz mumkin: (812) 571-09-06.

Sankt-Peterburgdagi tibbiy muassasalar, favqulodda yordam xizmatlari, aptekalar va travma markazlari haqida batafsil ma'lumotni migrantinfo.spb.ru saytining "Ma'lumotlar" bo'limida topishingiz mumkin.

## Politsiya bilan aloqa qilish

Politsiyaning vazifasi bu - fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini, ularning millati, etnik gruppasi, diniy yoki boshqa ko'z qarashalaridan qatt'i nazar, qonun ustuvorligini nazarat qilishdiz.

Agar siz jinoyat qurboni bo'lsangiz, yoki jinoiy voqeaga guvoh bo'lsangiz, darhol politsiya bilan bog'laning.

Politsiya

02 oddiy telefonlardan, 102 yoki 112 – uyali aloqa telefonlaridan  
Sayt: *78.med.pcb*

2016 yilning 1 iyunidan Federal migratsiya xizmati (ФМС) ning vazifalari, РФ МБД zimmasiga o'tkazildi.

### Hujjatlarni tekshirish

Hujjatlarni faqat o'z vazifalarini bajarayotgan politsiya xodimlariga tekshirishga xaqli. Bu xodimlarda maxsus ko'krak nishoni (belgisi) bo'ladi, **nishonning raqamini eslab, yoki yozib oling.**

Itimos, har doim o'zingiz bilan birga quyidagilarni olib yuring:

- pasport
- migratsiya kartasi
- migratsiya ro'yxatiga turganingiz to'g'risidagi xabarnoma varaqchasi
- ish patentingiz va patent uchun to'lagan soliq cheklaringiz
- ihtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (ДМС) yoki majburiy tibbiy sug'urta polisi (ОМС).

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) a'zo davlatlar fuqarolari, Rossiyada ish patentini olishlari shart emas.

Barcha hujjatlaringizni nusxasini chiqarib oling va ularni asl nusxasidan alohida saqlang, chunki, hujjatlaringizni yo'qotib qo'sangiz nusxalardan ularni qayta tiklash osonroq bo'ladi.

Sizga murojaat qilganda, politsiyachi:

- unvonini, lavozimini, ism-sharifini aytishi

- siz so'rasangiz o'zining politsiya IDsini ko'rsatishi
- ("Politsiya to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi, 4-bandi asosida) hujjatlaringizni tekshirishidan maqsadi nima ekanligini tushuntirishi kerak.

Politsiya xodimi hujjatlaringiz haqiqiy ekanligiga shubha qilishi mumkin, bunday holatda, siz u bilan birga markaziy ma'lumotlar bazasida hujjatlaringizni tekshirtirishingiz mumkin. Buning uchun eng yaqin politsiya markaziga borishingiz kerak bo'ladi.

Oilangiz yoki do'stlaringizga telefon qilib, qaerda ekanligingizni va kim bilan gaplashayotganingizni aytib qo'ying, bu juda muhim.

Pora berish jinoyat ekanligini unutmang! Politsiyachiga pul bermang!  
Pora so'rasha 112 nomeriga telefon qilib xabar qiling!

### **Politsiya bo'limida ushlab qolishsa:**

Qo'lga olingan shaxs telefon orqali suhbatlashish huquqiga ega ("Politsiya to'g'risida" gi qonunning 14-moddasi, 7-bandi asosida).

Hibsda ushlab turish to'g'risida protokol tuziladi va unda:

- protokolning sanasi, vaqti va joyi;
- protokolni tuzgan militsionerning lavozimi, ism-sharifi;
- ushlangan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, ushlab turilgan kun, vaqt, joy va sababi ko'rsatiladi. ("Politsiya to'g'risida"gi qonunning 14-moddasi, 14-bandi asosida).

Hibsda ushlab turish to'g'risidagi protokolni politsiya xodimi va ushlab turilgan shaxs imzoladi.

Agar siz protokolda yozilgan ma'lumot bilan rozi bo'lmasangiz, sababini ko'rsatib - "Protokol bilan rozi emasman" deb yozing.

Agar ushlangan shaxs protokolni imzolashdan bosh tortsa, protokolda rad qilgani takidlanib yozilib qo'yiladi ("Politsiya to'g'risida" gi qonunning 15-moddasi, 15-bandi asosida).

Ushbu protokolning nusxasini so'rab olishni unutmang - politsiya sizning iltimosingiz bo'yicha bir nusxasini sizga berishi kerak ("Politsiya to'g'risida" gi qonunning 14-moddasi, 15-bandi asosida).

Sud qaroriga qadar, fuqaro 48 soatdan ortiq vaqt davomida politsiya tomonidan ushlab turilmaydi.

Qo'lga olingan fuqaro advokat va rus tilini yaxshi bilmasa, tarjimon so'rashi mumkin.

Politsiya xodimlari hujjatlarni jarima xaqqiga kafolat sifatida olish huquqiga ega emaslar - bu noqonuniy hisoblanadi.

Migratsiya sohasidagi ma'muriy qonunbuzarliklar to'g'risidagi protokol, faqat Migratsiya ishlari bo'limining xodimlari tomonidan tuziladi. Protokolning tuzilgani, jarima to'lashingiz kerak degani emas. Jarima faqat, **ma'muriy jinoyat sodir etildi deb hukm chiqarilsgina** to'lanadi. Bundan tashqari, hukm ustidan 10 kun ichida shikoyat murojatnomasini topshirishingiz mumkin.

Hibsga olish vaqtida huquqlaringiz buzilsa, siz Davlat monitoring komissiyasi (OHK) ga murojaat qilishingiz mumkin. OHK a'zolari chet el fuqarolarini hibsga olish shartlarini tekshirish huquqiga ega bo'lib, sizga bepul yuridik yordam berishlari mumkin.

### **Общественная наблюдательная комиссия Санкт-Петербурга:**

сайт: [onkspb.ru](http://onkspb.ru)

электронная почта: [mail@onkspb.ru](mailto:mail@onkspb.ru)

а/я 62, индекс 199004

Телефон: +7 (931) 352-06-35

### **Reydlar**

Hujjatlaringiz maxsus reydlar davomida tekshirilishi mumkin. Politsiya va migratsiya xizmati xodimlari pasportingizni, migratsiya kartangizni, migratsiya ro'yxatiga turganingiz to'g'risidagi xabarnomani, tibbiy polisingizni tekshirishadi. Bundan tashqari, amaldagi ish joyingiz va lavozimingizni hujjatda ko'rsatilgan ma'lumotlarga to'g'ri keladimi-yo'qmi, uni ham tekshirishadi.

Migratsiya ishlari bo'yicha nazorat xodimlari bunday tekshirish natijalariga ko'ra akt tuzishadi. Agar qonunbuzarliklar aniqlansa, ma'mu-

riy jinoyat to'g'risida yoki ma'muriy jinoyatga qarshi ish qo'zg'ash to'g'risida protokol tuzishadi. Akt yoki protokolning bir nusxasini gumon qilinaётган shaxsa berishlari kerak.

Metro stantsiyasiga kirishda yoki temir-yo'l stantsiyalarida terrorchilik xavfi borligi sababdan, sizni maxsus ramkadan o'tishingizni, yuklaringizni detektordan o'tkazishingizni so'rashlari mumkin. Ushbu harakatlar qonuniydir.

### **Politsiya xodimlarining harakatlari ustidan shikoyat qilish**

Agar politsiya ish vazifalaridan ortiqcha harakat qilsa, arizangizni rad qilsa, chorasizlik qilsa, tovlamachilik, yoki poraxo'rlik qilsa, siz politsiya noqonuniy harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Politsiya xodimlari noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat bilan quyidagi joylarga murojaat qilishingiz mumkin:

- ГУ МВД ning 112 va 02 raqamlariga qo'ng'iroq qilish;
- yaqin orada joylashgan politsiya idorasiga;
- МФВ РФ ning yaqinda joylashgan rayon boshqarmasiga, yoki hududiy bo'limiga.

**Телефон доверия ГУ МВД России по СПб и ЛО:**

8 (812) 573-21-81

**Дежурная часть ГУ МВД России по СПб и ЛО:**

8 (812) 573-24-20

**Телефон справочной ГУ МВД России по СПб и ЛО:**

8 (812) 573-26-76

**Приемная ГУ МВД России по СПб и ЛО:** Литейный проспект, д.6, подъезд №3, тел. 8 (812) 573-34-81

[78.mvd.ru](http://78.mvd.ru)

Politsiya xodimlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha shikoyatlarni qabul qiluvchi organ: **Оперативно-розыскная часть**

**собственной безопасности ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области:**

195197, г. Санкт-Петербург, ул. Жукова, д.7а

Телефон дежурного:8 (812) 541-02-02

**Телефон доверия – 8(812) 573-21-81**

Militsiya xodimlarining harakatsizliklari, jinoyat sodir bo'lgani borasidagi arizani qabul qilib olishdan bosh tortishlari, shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibini buzishlari kabi qonunbuzarliklari haqida **Прокуратура** ga murojaat qilishingiz mumkin:

Politsiyachilar tomonidan sodir etilgan korruptsiya jinoyatlarini tekshirish bilan shug'illanadigan ishxona, bu - **Главное Следственное Управление Следственного комитета РФ по Санкт-Петербургу:**

**Уполномоченный по правам человека в Санкт-Петербурге**

ishxonasi ham МВД xodimlari tomonidan fuqarolarning huquqlarini buzganliklari to'g'risidagi shikoyatlarni qabul qiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan organlarga va ularning bo'linmalariga, siz telefon orqali, shaxsan yozma ariza bilan murojaat qilishingiz mumkin. Shuningdek, bo'limning veb-saytida maxsus elektron ariza blankni to'ldirishingiz ham mumkin.

Jinoyat to'g'risida ariza berilganda, taqdim etilgan ma'lumotlar tekshirilib, ariza bergan shaxs bilan guvohlar so'roq qilinadi. Tekshiruv natijasida jinoyat ishini qo'zg'ash yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Yozma ariza topshirgan odamga javob xati, shikoyat topshirilgan sanadan boshlab 30 kun ichida kelishi kerak.

Politsiya xodimlarining ma'suliyatlari va majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotni, Sankt-Peterburgdagi politsiyaning barcha bo'limlarining manzillarini, shikoyat qilish imkoniyatlari va shikoyatnomaning nusxasini migrantinfi.spb.ru saytining "Ma'lumotlar" sahifasida topishingiz mumkin.

## Ijtimoiy yordam

### Kim ijtimoiy yordam olishi mumkin:

- Sankt-Peterburgda vaqtincha yoki doimiy ravishda yashovchi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va ularning oilalari (**faqat shoshilinch ijtimoiy yordam xizmatlaridan foydalanish huquqiga egalar**);
- Rossiya Federatsiyasi hududida yashash huquqiga ega bo'lgan xorijiy fuqarolar;
- RF fuqarolarining chet ellik oila a'zolari;
- fuqaroligi yo'q bo'lgan shaxslar;
- qochqinlar

### Ijtimoiy xizmatlar turlari:

- ijtimoiy ta'minot – oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyafzal va asosiy ehtiyojlarni qondiruvchi buyumlar, madaniy hordiqni tashkil qilish;
- tibbiy- profilaktika va sog'liqni saqlash;
- psixologik - psixologik yordam ko'rsatish;
- o'quv ishlari - hulq-atvordagi o'zgarishlarning profilaktisi, oilaga bolalarni tarbiyalashda yordam berish;
- mehnat – ish topishda va ishga joylashishda yordam berish, shuningdek ish joyiga moslashishga oid boshqa muammolarni hal etishda yordam ko'rsatish;
- huquqiy – yuridik xizmatlar, imkoni borida bepul ravishda yordam qilish.

### Tezkor ijtimoiy xizmatlar:

- bepul issiq ovqat yoki oziq-ovqat mahsulotlari;
- kiyim-kechak, poyafzal va boshqa asosiy ehtiyojlarni ta'minlash;
- uy-joy ijaraga olishga yordam berish;

- yuridik yordam;
- tezkor psixologik yordam.

### **Ijtimoiy yordam olish uchun qayerga murojaat qilish kerak:**

- Muhojir o'zi ro'hatdan o'tkan tumanyoki shaharidagi aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat organlariga murojaat qilishi kerak.

#### **• Комитет по социальной политике Санкт-Петербурга**

*http://gov.spb.ru/gov/otrasl/trud/* telefon: +7 (812) 576-24-61

Sankt-Peterburg shahrida oilalar va bolalar uchun ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlarida, bolali muhojirlar oilalari uchun ijtimoiy yordam bo'linmalari tashkil etilgan. Ularning faoliyati haqida «Семья» axborot-metod markazida tanishishingiz mumkin.

#### **• Shahar axborot-metod markazi «Семья»**

**Адрес: 190068, ул. Садовая, дом 55-57, литер А**

**телефон: +7 (812) 417-31-51**

Sankt-Peterburgdagi oilalar va bolalar uchun ijtimoiy yordam markazlarining to'liq ro'yxati va aloqa kontaktlari sahifasi - *http://www.homekid.ru/spravochnik-po-rajonam.html*.

Ijtimoiy xizmatga muhtoj fuqarolarning haqiqatdan muhtojligi to'g'risidagi qaror, ariza topshirilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida qabul qilinadi. Sizga qaror haqida elektron yoki yozma ravishda xabar berishlari kerak.

Tezkor ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish qarori darhol qabul qilinadi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi rad etilgan hollarda, sudga shikoyat qilishingiz mumkin.



## **Rossiyadagi chet el fuqarolarining farzandlarining ta'limi**

**Rossiya Federatsiyasida bolalar ta'limi to'g'risidagi qonun bu:  
"Rossiya Federatsiyasida ta'lim olish to'g'risidagi" qonundir  
(29.12.2013 )**

Chet el fuqarolarining bolalari huddi RF fuqarolarining bolalaridek, bepul bolalar bog'chasiga borishga va maktabda o'qishga haqlari bor.

Bolalar Rossiyada qonuniy ravishda yashashlari, ya'ni migratsiya kartasi va registratsiyalari bo'lishi kerak.

18 yoshga to'lmagan xorijiy fuqarolarning farzandlari Rossiyada ishlash huquqiga ega emaslar!

Yil shartnomasining 97-moddasi 5-bandiga binoan, Evroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi mamlakatlari fuqarolari bo'lgan mehnat muhojirlarining farzandlari, RFda ota-onalarining mehnat shartnomasi muddati tugagunicha yashash haqqiga egalar.

Rossiyada yashaydigan maktab yoshidagi bolalar maktabda o'qishlari SHART. Agar siz bolangizni maktabga bermasangiz, uni ishga joylashtirsangiz, yoki yomon sharoitlarda ushlab tursangiz, vasiylik xizmati va politsiya sizni javobgarlikda tortishi va farzandingizni tug'ilgan mamlakatiga yuborishlari mumkin.

### **Bolalarni bolalar bog'chasi va maktabga qabul qilish tartibi**

Bolangizni bog'chaga, yoki maktabning birinchi sinfiga kirish uchun – registrasiya bo'lgan joyingizdagi eng yaqin ta'lim muassasasiga yoki ko'p funktsional markazga (МФЦ) ga murojaat qilishingiz kerak.

Katta shaharlarda ko'pincha bolalar bog'chalarida joy yo'q. Bunday holatlarda, bolani bo'sh joyi bor boshqa ta'lim muassasasiga jo'natishadi.

Maktabga kirish uchun eng yaqin maktab yoki tuman ta'lim bo'limi (POHO) bilan bog'lanishingiz kerak.

Agar maktabga bolani olishmasa, tuman ta'lim bo'limi (POHO) ga murojaat qilishingiz lozim. Agar barcha kerakli hujjatlaringiz bo'lsa, sizga registratsiyadan o'tgan tumaningizdagi maktablardan birida joy berishlari kerak.

### **Kerakli hujjatlar**

- bolaning horijiy pasporti, xorijiy pasport nusxasi;
- tug'ilganlik to'g'risidagi guvohtonomaning rus tilida notarial tasdiqlangan tarjimasi;
- bolaning migratsiya kartasi;
- bolaning registratsiyasi;
- ota-onasidan birining pasporti va pasport nusxasi;
- ota-onasidan birinining registratsiyasi va uning nusxasi;
- bolani tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik va xavfli kasalliklar yo'qligi to'g'risidagi tibbiy hisobot - maxsus tibbiyot muassasalarida ko'rikdan o'tish mumkin.
- emlash sertifikatini;
- bolaning tibbiy kartasi - tibbiy ko'rikdan o'tayotganda to'ldiriladi, yoki kelgan mamlakatidan olib kelinadi.

Bundan tashqari sizdan quyidagilarni talab qilishlari mumkin:

- bolaning tibbiy polisi;
- o'quvchining shaxsiy fayli;

Ayrim hollarda bolani maktabga joylashtirish jarayonida, bola o'qituvchilar bilan suhbatdan o'tishi kerak bo'ladi. Ular bolaning maktabga qay darajada tayyorligini, rus tilini qanchalik bilishini aniqlashadi va shunga qarab bola nechinchinchi sinfga borishini hal qilishadi.

Agar maktabga bolani olishmasa, tuman ta'lim bo'limi (POHO) ga murojaat qilishingiz lozim. Agar barcha kerakli hujjatlaringiz bo'lsa, sizga registratsiyadan o'tgan tumaningizdagi maktablardan birida joy berishlari kerak.

Agar sizga maktabdan joy berishda rad qilishsa, Ta'lim Kengashiga murojaat qilishingiz mumkin: 576-18-36, 576-18-76, 576-18-74.

## Rossiyada o'zini tutish madaniyati

Rossiyaning aksariyat aholisi, shaharcha yurish-turish va aloqa madaniyatini qo'llaydilar. Iltimos, sizni rus shaharlariga ko'nikishin-gizda yordam beradigan ba'zi muhim xatti-harakat qoidalariga e'tibor berib, ularni yaxshilab o'zlashtirib oling.

Albatta, ba'zi ruslar qo'pol va madaniyatsiz bo'lishlari mumkin, ammo bunday xatti-harakatlar ko'pchilik tomonidan qoralanadi, ular taqlid qilish uchun namuna bo'la olmasligini tushunish muhimdir.

1) Rossiyada jamoat joylarida xatti-harakatlar va atrofdagilar bilan muloqot qilish madaniyati mavjuddir:

- transportda baland ovozda gapirish va ovqat eyish, ko'chada pivo ichish, axlat tashlash odobsizlik bo'lib hisoblanadi. Transportda va jamoat joylarida qariyalarga joy berish odopdandir.
- ko'chadagilar bilan suhbat qurishga urinish, juda yaqin turib gaplashib, taklifnomasiz bironing uyiga borish, boshqalar noroziligiga sabab bo'ladi. O'ralashmasdan, muloyim muomala qilish yahshi xulq-atvor bo'lib sanaladi.

2) Rossiya - dunyoviy davlat, ya'ni diniy xulq-atvor, diniy e'tiqodingizni ko'rsatsangiz, ibodatxonalardan tashqarida va diniy bayram bo'lmagan kunlarda diniy kiyim-kechaklarni kiyib yursangiz, ko'pchilik sizga g'alati qarashi mumkin.

3) Rossiyada ayollar va erkaklar teng huquqlarga egadirlar. Bu narsa qonun bilan himoyalangan. Oiladagi munosabatlar ham odatda teng asosda bo'ladi. Rossiyadagi ayollar oilani ham, ishni ham teng olib ketishga harakat qiladilar. Ayollar chiroyli kiyimni yoqtirishadi. Chiroyli kiyinib yurish bilan ayollar o'z mustaqilliklari va erkinliklarini namoyish qiladilar, bu ular tanishish uchun shunday kiyinadilar degani emas. Ko'chada biron bilan tanishish odat emas.

4) Rossiyada o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham maktabda ta'lim olishlari sgart, keyin esa, agar xohlasalar, kollej yoki universitetda o'qishlari mumkin. Bolalarni ishlatish, ularga qiyin ishlarni buyurish va ota-onalari uchun ishlatish odat emas.

5) Ruslarning aksariyati samimiy, murakkab vaziyatlarda yordam berishga tayyorliklari va savollarga javob berishga tayyor turishlari bilan farqlanadilar. Rossiyada tezroq joylashishingiz uchun, sizga mahalliy aholi bilan ko'proq muloqot qilishni, do'stlashishni, dam olish kunlarida o'tkaziladigan bayramlarda ishtirok etishni, filmlar, muzeylar, teatrlar, kutubxonalarga borishingizni va rus tilini o'rganishni maslahat beramiz. Sankt-Peterburg Rossiyaning madaniy poytaxti bo'lib hisoblanadi, bizning shahrimizda mavjud madaniy dam olish imkoniyatlardan foydalaning!

Sobiq SSSR mamlakatlari aholilari orasida umumiy ko'z-qarashlar yo'q emas. Avvalo, biz bitta umumiy tarixga egamiz: ruslar, Ikkinchi jahon urushida Sovet Ittifoqi xalqlarining ko'rsatgan qahramonliklarini katta hurmat bilan xotirlaydilar. Sankt-Peterburg aholisi uchun 1941-1944 yillardagi Leningrad qamali katta ahamiyatga egadir. Shaharliklar odatda ota-bobolari ko'rsatgan botirliklar to'g'risida gapirib berishni yahshi ko'radilar, bu narsa tanishish va do'stlashish uchun mustahkam asos bo'la oladi, chunki mamlakatlarimiz ko'p jihatdan umumiy tarixga ega.

Sankt-Peterburgda mehnat migrantlarining adaptatsiyasi, integratsiyasi va kerakli ma'lumotlarni tarqatish, shuningdek, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlar olib boriladi:

- Sankt-Peterburg, Rossiya Federatsiyasi migratsiya va mehnat qonunchiligi borasida maslahatlar, muhojirlar uchun foydali aloqalar rasmiy internet-resurs veb-saytida bor - [migrantinfo.spb.ru](http://migrantinfo.spb.ru);
- migrant ishchilar uchun shaharning rayon kutubxonalarida "muhojirlar burchi" nomli ma'lumot burchlari ochildi. Ushbu kutubxonalar ro'yxati bilan <http://migrussia.ru/informatsiya-o-regionakh/sankt-peterburg> veb-saytida tanishishingiz mumkin.
- muhojirlar uchun shahar rayonlarida "Sankt-Peterburg qanoti ostida" deb atalgan ma'lumot va madaniy yig'ilishlar uyushtiriladi - <http://gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/informacionno-kulturnoe-meropriyatie-dlya-migrantov-pod-krylom-peterbu/>.
- yiliga bir marta chet el fuqarolari orasida "Ko'p tomonli Peterburg" deb atalgan ijodiy musobaqa bo'lib o'tadi - <http://gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/tvorcheskij-konkurs-sredi-inostrannyh-grazhdan-mnogogrannyj-peterburg/>, <https://vk.maqomoti/granyspb>.

## **Rossiya Federasiyasining migratsiya bo'yicha qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik**

RF migratsiya qonunlarini buzgan chet el fuqarosi ma'muriy yoki jinoyi javobgarlikka tortilishi, va hattoki mamlakatdan chiqarib yuborilishi ham mumkin.

### **1. RF hududiga kirish man qilinishi**

Agar sizda tibbiy sug'urtangiz bo'lmasa, yoki muddati tugamagan sud ishi bo'lsa, sizga RF hududiga kirish man etilishi mumkin.

Agar narhi to'lanmagan xarajatlaringiz, soliqlar yoki jarimalaringiz bo'lsa, sizni to qarzingizni uzmaguningizgacha Rossiyaga kirgizmaydilar.

Agar siz Rossiyada ishlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirmasdan, 180 kun ichida hammasi bo'lib 90 kundan uzoq vaqt yashagan bo'lsangiz, sizga 3 yil davomida RF hududiga kirish taqiqlanadi.

Agar 3 yil ichida siz 2 yoki undan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsangiz va buning uchun sizga jarima solingan bo'lsa, sizga 3 yil davomida RF hududiga kirish taqiqlanadi.

Agar siz migratsiya rejimini buzganlik uchun 1 yil davomida 2 yoki undan ortiq marotaba ma'muriy huquqbuzarlikka tortilgan bo'lsangiz, RF hududiga kirish 5 yil muddatga taqiqlanadi.

Agar siz RF hududida qonuniy yashash muddatingizni 30 kun oshirgan bo'lsangiz, RF hududiga kirish 3 yil muddatga taqiqlanadi.

Agar siz RF hududida qonuniy yashash muddatingizdan 180 kundan to 270 kungacha oshirgan bo'lsangiz, RF hududiga kirish 5 yil muddatga taqiqlanadi.

Agar siz RF hududida qonuniy yashash muddatingizdan 270 kun ko'p yashagan bo'lsangiz, RF hududiga kirish 10 yil muddatga taqiqlanadi.

Agar siz bundan oldin RF dan chiqarib yuborilgan yoki deportatsiya qilingan bo'lsangiz, RF dan chiqarib yuborilgan kun yoki deportatsiya vaqtidan boshlab RF hududiga kirish taqiqlanadi. Agar davlat

sizning vataningizga qaytish harajatlaringizni to'lagan bo'lsa, siz ushbu xarajatlarni to'lashingiz lozim. Aks holda sizga 5 yildan keyin ham mamlakatga kirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar siz oldin migratsiya ro'yxatidan o'tish uchun yoki ishga kirish uchun vositachilar xizmatidan foydalangan bo'lsangiz, sizga soxta hujjatlar qilib berilganligi ehtimoli bor, shuning uchun siz RF hududiga kirishi taqiqlanganlar ro'yhatida bo'lishingiz mumkin.

Siz migratsiya xizmati tomonidan RF ga kirishingiz taqiqlanganligini Rossiya havo yo'llari vakillaridan, yoki Rossiya ГYBM MBД ning saytidagi maxsus xizmatdan foydalanib bilishingiz mumkin.

### **Kirish taqiqlanishining bekor qilinishi**

Rossiyaga kirish taqiqlanishini quyidagilar bekor qila oladi:

- insonparvarlik sabablariga ko'ra, ya'ni kasallik sababiga ko'ra, kasal qarindoshiga g'amxo'rlik qilish kerak bo'lgan bo'lsa, yoki boshqa favqulodda vaziyat sababidan Rossiyadan chiqib ketishning iloji bo'lmaganligi isbotlansa;
- oila birligi tamoyiliga amal qilish maqsadida, agar xorijiy fuqaro RF fuqarosi bilan oila qurgan bo'lsa (eri/xotini, ularning bolalari), ulardan ajratilmaydi;
- migratsiya amnistiya tartiblariga ko'ra, Armeniya va Qirg'iziston fuqarolariga berilgan taqiq, 1,5 yil vaqt o'tkandan keyin bekor qilinishi mumkin;
- yangi ochilgan holatlarda - agar qaror xato chiqarilgan bo'lsa;
- kirishga taqiq muddati tugasa;
- kirish taqiqi sabablari bartaraf qilingan hollarda;

RF ga kirish taqiqini, Rossiya MBД sining Migratsiya ishlari bo'yicha bo'limiga murojaat qilib, bekor qilish mumkin.

Kirishga taqiq qarorini qayta ko'rish haqidagi so'rovnomani ГY MBД saytidagi formadan foydalangan tartibda elektron ko'rinishda yuborish mumkin:

[https://mvd.ppf/request\\_main](https://mvd.ppf/request_main)

So'rovnoma qirishga taqiqni bekor qilinganini tasdiqlovchi hujjatlar ni ilova qilish kerak: RF da tug'ilib, fuqarolik olgan bolalarningizning tug'ilganlik haqidagi guvohtomasini, nikoh ro'yxatidan o'tkazilganlik haqidagi guvohtomani, kasallik haqidagi ma'lumotnomani va hokazolarni.

Kirishga taqiqni qayta ko'rish haqidagi so'rovnoma, shuningdek Rossiyaga kirish taqiqi haqidagi qarorni chiqargan MBD ning migratsiya ishlari bo'yicha bo'limga ham topshirish mumkin.

RF ga kirish taqiqini qayta ko'rib chiqish rad etilishini shaxsan yoki himoyachi orqali da'vo arizasini yozib, sudga shikoyat qilish mumkin. Da'vo arisasi kirish taqiqini qo'ygan hududiy migratsiya bo'yicha bo'limining joylashan eridagi sudga taqdim qilinishi kerak.

Sankt-Peterburg sudlari:

<http://courts.spb.ru/>

## 2. Ma'muriy javobgarlik

Agar siz Sankt-Peterburg hududida bo'la turib:

- migratsiya ro'yxatidan (registratsiya) o'tkaningiz to'g'risidagi xabar-nomani rasmiylashtirmagan bo'lsangiz;
- Rossiya migratsiyasi qonunlari talab qilgan hujjatlar politsiya tomonidan to'xtatilgan paytda yoningizda bo'lmasa;
- migratsiya kartasida kirish maqsadini yolg'on ko'rsatgan bo'lsangiz;
- kerakli hujjatsiz ishlagan bo'lsangiz yoki patentda ko'rsatilmagan mutaxassislik bo'yicha ishlagan bo'lsangiz;
- migratsiya ro'yxatiga qo'yish jarayonida yo'lgon ma'lumotlar ko'rsatgan bo'lsangiz,

Sizga 5000 rubldan 7000 rublgacha miqdorida jarima solinadi, va RF hududidan chiqarib yuborishlari mumkin. (st.18.8 q.3, st. 18.10 q.2, st. 19.27 q.3 KoAP RF asosida).

RF dan chiqartirib yuborish Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati YBM FVBD ning Migratsiya bo'yicha bo'limi tomonidan, xorijiy fuqaro o'z hisobiga kerakli xabarnomani topshirib, mustaqil ravishda chiqib ketishi orqali amalga oshiriladi.

Migratsiya sohasida ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jazoni sud belgilaydi. Sud majlisida siz himoyachi xizmatlaridan foydalanish huquqiga egasiz. Sizning talabingizga ko'ra sizni tarjimon bilan ta'minlashlari kerak. Sud qarori sizga tushunarli tilda taqdim qilinishi kerak. Siz yozma qarorni qo'lga olganingizdan boshlab 10 kun ichida sud qarori ustida shikoyat qilishingiz mumkin.

Agar chet el fuqarosining shaxsini aniqlovchi hujjatlari, yoki migratsiya ro'yxatiga qo'yilganligi haqida xabarnomasi (registratsiyasi) bo'lmasa, yoki huquqbuzarlik qayta sodir qilingan bo'lsa, sud chet el fuqarosini ЦВСИГ (Xorijiy fuqarolarni vaqtincha saqlash markazi) ga jo'natilishi mumkin.

Agar sizni ЦВСИГ ga joylashtirishsa, hujjatlaringizni tezroq tiklanishiga yordam berishga harakat qiling. ЦВСИГ da yashayotgan chet el fuqarosining shaxsini aniqlab bo'lmasa, 2 yilga cho'zilishi mumkin. O'z davlatingizning konsulligiga albatta murojaat qiling, yoki bepul yuridik yordam olish uchun jamoat tashkilotlariga murojaat qiling.

### 3. Jinoiy javobgarlik

Soxta hujjatlardan qo'llangani, yoki ularni ishlab chiqargani uchun chet el fuqarolari jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Vositachilarga murojaat qilmang – ular tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlar soxta bo'lib chiqishi mumkin!

Hujjatni soxtalashtirilishi 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan belgilanadi. Soxta hujjatlardan foydalanish uchun 80 ming rublgacha jarima yoki 6 oygacha bo'lgan muddatga qamoq jazosi belgilanadi (ст. 327 УК РФ ).

Chet el fuqarosi kirishga taqiq qo'yilganligini bila turib RF chegarasidan o'tsa, 4 yilgacha qamoq jazosi beriladi, yoki 300 ming rublgacha jarima belgilanadi (ст. 322 ч.2 УК РФ).



## Rossiya Federatsiyasida vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma olish

Agar Rossiya Federatsiyasi bilan hayotingiz va taqdiringizni bog'lamoqchi bo'lib, Rossiya fuqaroligini olmoqchi bo'lsangiz, siz ro'yxatdan o'tgan hududda Rossiya Federatsiyasi Migratsiya tadqiqot ishlar bo'limiga Vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma (RVP) ga topshirishingiz mumkin.

**Vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma** chet el fuqarolariga har bir hududda har yili belgilangan kvota asosida, yoki boshqa asos bo'lsa, kvotadan tashqari berilishi mumkin. Kvota miqdori odatda oz bo'lgani sababli, RVP uchun arizani yil boshida bergan afzalroq.

RVP berish uchun kvota odatda aholisi zich hududlarda, ayniqsa Moskva va Sankt-Peterburgda juda oz bo'ladi, lekin aholisi kam viloyatlar va hududlarida ancha ko'p bo'ladi.

Ehtiyotkorlik bilan Rossiya Federatsiyasining УВМ ГУ МВД rasmiy veb-saytlarini o'qib yuring. U yerda yil boshida RVP haqida kvota taqsimlash tartibi haqida ma'lumot ilovalarini chiqariladi.

RVP olgan chet el fuqarosi Rossiya Federatsiyasida RVP muddati tugaguncha doimiy ravishda Rossiya Federatsiyasida istiqomat qilishi, rasman patentsiz ishlashi, boshqa hududlarga erkin borib kelishi, shuningdek, doimiy ravishda yashash uchun ariza topshirishi, keyinchalik esa Rossiya fuqaroligini olishi mumkin.

Vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnomalar 3 yil muddatga beriladi, Rossiya Federatsiyasi УВМ ГУ МВД rayonlardagi bo'limlarida qabul qilinadi. Arizalar navbat tartibida topshiriladi, arizalar yilning boshida topshiriladi va 2 oy ichida ko'rib chiqiladi.

### **Kerakli hujjatlar:**

- 2 nusxada vaqtinchalik yashash uchun ariza.
- 35x45 mm Foto 4 dona. (matovye, yaltiramaydigan), arizada ko'rsatilgan bolalarning ham suratlari.
- pasport va uning notarial tasdiqlangan tarjimai (pasportning muddati 6 oydan oz bo'lsa ariza qabul qilinmaydi).

- chegarani kesib o'tkaningiz to'g'risidagi muhr qo'yilgan migratsiya kartasi.
- yashayotkan joyingizga registratsiya (migratsiya ro'yxatdan o'tkaningiz to'g'risidagi xabarnoma).
- siz va oila azolaringizda VICH yo'qligi haqida guvohnoma. Guvohnoma olingan kundan boshlab 3 oy davomida amal qiladi.

Tibbiy guvohnoma, arizachi va uning oila a'zolari giyohvand emasliklari va quyidagi yuqumli kasalliklar bilan og'rimasliklarini tasdiqlashi kerak: VICH, moxov, sil, zaxm, xlamydiaalik limfogranulema (venerik), shankroid.

- 18 yoshga to'lmagan bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va uning nusxasi.
- 14-18 yosh orasidagi bolaning Rossiyaga ko'chib o'tishga roziligi tasdiqlovchi imzosi. Hujjatda bolaning imzosi notarial tasdiqlanishi kerak.
- vaqtinchalik yashashga ruxsat berilishi uchun 1000 rubl miqdoridagi davlat boji to'langan kvitansiya.
- ish joyidan 2-ИДФЛ spravkasi yoki bank hisobidan ma'lumot varaqchasi.

### **Chet el fuqarosi RVP uchun murojaat qilganda, rus tili, Rossiya Federatsiyasi tarixi va qonunchiligining asoslarini bilishi kerak.**

Chet el fuqarosi rus tili, Rossiya tarixi va qonunchiligining asoslarini bilishini isbotlash uchun quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi kerak:

1) rus tili, Rossiya tarixi va qonunchiligining asoslarini bilishini tasdiqlovchi sertifikat;

Siz rus tilini, Rossiya Federatsiyasining tarixini va qonunchiligini bilish sertifikatini maxsus test markazlarida test topshirib olishingiz mumkin. Rossiyada va xorijda tasdiqlangan test markazlarining ro'yxati Rossiya ГУБМ МВД saytida bilishinigi mumkin <http://gov.mvd.rf/>.

Test tayyorlanish uchun "Rus test conortiumi" ning saytiga yordam beradi <http://testcons.ru>.

<Http://testmigr.ru/> saytida tahminiy test sinovini topshirib ko'rishingiz va o'z darajangizni aniqlab olishingiz mumkin.

2) 1991 yil 1 sentyabrgacha SSSR tarkibiga kirgan davlat hududida ta'lim muassasasi tomonidan beriladigan ta'lim to'g'risidagi davlat hujjati (asosiy umumiy ta'limdan kam bo'lmagan xollarda);

3) 1991 yil 1 sentyabrdan boshlab Rossiya Federatsiyasi hududida davlatning yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan shaxslarga beriladigan ta'lim va (yoki) malaka to'g'risidagi hujjat.

Chet el fuqarolarining quyidagi toifalari test topshirishlari kerak emas:

1) mehnatga layoqatsiz yoki jismonan cheklangan xorijiy fuqarolar;

2) o'n sakkiz yoshga to'lmagan xorijiy fuqarolar;

3) chet el fuqarolari - oltmish besh yoshga to'ladigan erkaklar;

4) chet el fuqarolari - oltmish yoshga to'lgan ayollar;

5) o'z roziligi bilan Rossiya Federatsiyasiga ko'chib kelgan Davlat dasturining ishtirokchilari bo'lgan xorijiy fuqarolari va ularning oila a'zolari;

6) yashash uchun ruxsatnoma olish uchun murojaat qilgan chet ellik yuqori malakali mutaxassislar va ularning oila a'zolari;

7) rus tili ona tili ekanligi tan olingan yashash uchun ruxsatnomaga ariza topshirgan xorijiy fuqarolar.

RVPga ariza berishda ular rus tilini bilish darajasiga, oliy ma'lumotli bo'lishiga, Rossiya Federatsiyasidagi rasmiy daromadga va rasmiy ish joyiga ega bo'lishlariga e'tibor berishadi; Siz Rossiya Federatsiyasi migratsion rejimini buzishingiz, ma'muriy huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligingiz kerak. Siz shuningdek Rossiya Federatsiyasining hududida yashaydigan manzilingiz to'g'risida ma'lumotni taqdim etishingiz va keyinchalik bu manzilga rasman ro'yxatdan o'tishingiz kerak.

Ehtiyot bo'ling - RVPni ro'yxatdan o'tkazish uchun vositachilar bilan bog'laning! Ular RVPni chiqarish to'g'risida noto'g'ri muhrlar yarata-dilar; soxta holatlarda aniqlangan holatlarda hujjatlarni qalbakilashtirish va 6 oygacha qamoq jazosiga (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 327-moddasi uchinchi qismida) ayblanish mumkin - siz uchun Rossiya fuqaroligini olish yo'li yopiq bo'ladi!

Siz RVPni ro'yxatdan o'tkazish uchun elektron ariza bilan murojaat qilishingiz mumkin. Ushbu amaliyot bilan tanishish uchun [www.gosuslugi.ru](http://www.gosuslugi.ru) saytidan foydalanish mumkin

Kvota tashqarisida quyidagi sabablarga ega bo'lganlar RVP uchun murojaat qilishlari mumkin:

- RSFSR hududida tug'ilgan va o'tmishda SSSR fuqaroligida bo'lgan;
- Rossiya Federatsiyasi hududida tug'ilgan;
- qobiliyatli o'g'il yoki qizi Rossiya fuqaroligiga ega bo'lgan nogironlar;
- Rossiya Federatsiyasining fuqarosi bo'lgan kamida bitta nogiron ota-ona bo'lgan muhojirlar;
- Rossiya Federatsiyasi hududida doimiy yashovchi Rossiya fuqarosi bilan turmush qurgan;
- Rossiya Federatsiyasi fuqarolari bo'lgan farzandlari bo'lgan muhojirlar;
- 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar RWPga vasiylik, vasiylik, homiylik ostidagi ota-onalar, ota-onalar bilan birgalikda murojaat qiladilar;
- 18 yoshdan kattalar va ularning qobiliyatsiz yoki o'ta qobiliyatsiz deb topilgan, RWPga ularning homiylari, farzand asrab oluvchi, vasiylari, ota-onalari bilan birgalikda;
- shartnoma bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilish - harbiy xizmat muddati uchun;
- Rossiya Federatsiyasiga ixtiyoriy ravishda ko'chishga ko'maklashish bo'yicha Davlat dasturining ishtirokchilari.

**Ro'yxatdagi barcha asoslar Rossiya Federatsiyasi УВМ ГУ МВД ning vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma berish bo'limga topshiriladi. Da'vo tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, hujjatlarning asl nusxalari qaytarib beriladi, nusxalari esa arizaga qo'shib tirkaladi.**

**Agar tirkalgan hujjatlar xorijiy tilda yozilgan bo'lsa, rus tiliga notarial tasdiqlangan tarjimai qo'shib topshiriladi.**

Sankt-Peterburgda RVP bilan Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati, УВМ ГУ МВД ning Vaqtinchalik yashash uchun ruxsat va doimiy yashash uchun ruxsat bo'limi shug'ullanadi. Bo'limning manzili: Санкт-Петербург, ул. Красного Текстильщика, д. 10/12, тел. 8 (812) 596-36-02

RVP olgan chet el fuqarosi doimiy ravishda Rossiya hududida istiqomat qilishi va ishlashi kerak. Shuningdek, muntazam ravishda har bir yil tugashi bilan, 2 oy ichida (hujjatlar bilan tasdiqlangan muhim sabablar bo'lgan holda – 6 oydan kechiktirmay) daromatini tasdiqlovchi hujjatlarni ГУ УВМ МВД ning hududiy bo'limiga topshirishi kerak.

RVP ga topshirish haqida qo'shimcha ma'lumotlarni, varaqalarning misoli va zarur hujjatlarni [//guvvm.mvd.rf/gosuslugi/item/12896/veb-saytidan](http://guvvm.mvd.rf/gosuslugi/item/12896/veb-saytidan) olishingiz mumkin.

Agar Rossiya Federatsiyasiga ko'chib o'tishni va Rossiya Federatsiyasi fuqaroligini olishni xohlasangiz, siz va oila a'zolaringiz "Vatandoshlar" deb atalgan davlat dasturidan foydalanishingiz mumkin. Davlat dasturida qatnashsangiz, 6 oy ichida Rossiya fuqaroligini olasiz. Davlat dasturlari haqida ko'proq ma'lumotni [www.aiss.gov.ru](http://www.aiss.gov.ru) saytida topishingiz mumkin. - "Vatandoshlar" portali: Rossiyada vatandoshlarni joylashtirish bo'yicha davlat dasturining sayti.

### Foydali manzillar va telefonlar

Favqulodda vaziyatda hayot va sog'liqqa xavf soladigan yagona favqulodda yordam kanali - 112 (qattiq yoki mobil telefondan)

**migrussia.ru** – Migratsiya va muhojirlar, axborot portali (Sankt-Peterburg va Rossiyaning boshqa hududlarida huquqiy yordam bo'yicha tavsiyalar)

**MigrAsia** - muhojir ishchilar va ularning oila a'zolari - СНГ va EAЭC fuqarolari uchun mobil ilova (Android uchun).

**гувм.мвд.рф** – Главного управления по вопросам миграции МВД ning migratsiya savollari bo'yicha rasmiy sahifasi

**trudvsem.ru** – Rossiyada ishlash: Rossiyada mehnat va ish joylari bo'yicha federal xizmatning umum Rossiya bazasi

**онлайнинспекция.рф** - Mehnat va ish joylari bo'yicha federal xizmatining, mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha elektron murojaatlarni qabul qilish portali

**www.aiss.gov.ru** – Портал «Соотечественники»: Rossiya Federatsiyasida vatandoshlarni joylashtirish davlat dasturining sayti

### **Sankt-Peterburg axborot xizmatlari**

**migrantinfo.spb.ru** - muhojirlar uchun Internet-resurs: Rossiya Federatsiyasi migratsiyasi va mehnat qonunchiligi, migrantlarga maslahatlar, foydali kontaktlar

**ksob.spb.ru/ishtirokchilari** - “Migratsiya burchagi” Sankt-Peterburg kutubxonalarida muhojirlar uchun ma'lumot burchagining sayti.

### **Davlat tashkilotlari**

• **Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге**

**Адрес: Санкт-Петербург, Московский пр., 10-12**

**Почтовый адрес: 191060, Смольный**

*info@kmormp.gov.spb.ru*

**Телефон: 8 (812) 576-28-08**

Millatlararo munosabatlar va migratsiya siyosati masalalari

• **Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области**

Migratsiya savollari

**Сайт: 78.mvd.ru/ms**

191028, г. Санкт-Петербург, ул. Кирочная, д.4 литер А.

тел. 8 (812) 579-47-92, 8 (812) 273-90-03

• Mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha bo'limi (yuridik ishga joylashish va hujjatlarni tayyorlash masalalari):

ул. Красного Текстильщика, 15

8 (812) 318-06-26

• Immigratsiya nazorati bo'limi

набережная р. Фонтанки,78;

8 (812) 314-61-91

- Korruptsiya haqida xabar berish telefon aloqasi:

8 (812) 542-15-69

- **Многофункциональные центры (МФЦ)**

davlat xizmatlarini ko'rsatish

МФЦ yagona ma'lumot xizmati:

8 (812) 573-90-00

Peterburgdagi МФЦ lar ro'yxati:

[gu.spb.ru/mfc](http://gu.spb.ru/mfc)

### **Sankt-Peterburgda ish qidirish va chet el fuqarolariga ishga joylashishda yordam**

- **СПб ГАУ «Центр трудовых ресурсов»** - 8 (812) 758- 36-34,  
[spbgauctr.ru](http://spbgauctr.ru)

Chet el fuqarolari uchun ma'lumot telefonlari - **8-800-333-7097**

- **СПб ГАУ «Центр занятости населения»** - 8 (812) 571-00-41,  
[r21.spb.ru](http://r21.spb.ru)

ishga joylashish savollari bo'yicha ma'lumot

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish

- **Государственная инспекция труда в Санкт-Петербурге**  
(mehnat huquqladi buzilsa)

198095, г. Санкт-Петербург,

ул. Зои Космодемьянской, д.28-а

8 (812) 746-59-86, 8 (812) 374-31-97

[git78.rostrud.ru](http://git78.rostrud.ru)

- **Прокуратура Санкт-Петербурга** (chet el fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, rasmiy shaxslarning noqonuniy ishlari ustidan shikoyat qilish)

190000, Санкт-Петербург,

улица Почтамтская, дом 2/9

8 (812) 318-26-34

[procspb.ru/reception](http://procspb.ru/reception) — Internet orqali aloqa qilish uchun

- **Уполномоченный по правам человека в Санкт-Петербурге** (davlat idoralari ishchilari tomonidan, chet el fuqarolarining huquqlariga rioya qilishlarini boshqarish)  
Щербаков пер., д.1/3, Санкт-Петербург, 191002,  
тел. 8 (812) 764-00-54  
*ombudsmanspb.ru/ru/request* — Internet orqali aloqa qilish uchun
- **Уполномоченный по правам ребёнка** (bolalar huquqlariga rioya qilinishini boshqarish)  
пер. Гривцова, 11, Санкт-Петербург, 190031,  
тел. 8 (812) 576-70-00, *spbdeti.org*
- **Комитет по здравоохранению Санкт-Петербурга** (tibbiy yordam olish marakkablashganda)  
191011, Санкт-Петербург, Малая Садовая ул., д. 1  
8 (812) 595-89-79  
*zdrav.spb.ru* — Internet orqali aloqa qilish uchun  
Navbatchi shifokor-inspektor: 8 (812) 571-09-06  
Aptekalar va travma markazlari uchun axborot xizmati 8 (812) 63-555-63

### **Shahar tez yordam stansiyasi: 03, mobil telefondan – 103**

- **Комитет по образованию Санкт-Петербурга** (bolalarni maktabga yoki bolalar bog'chasiga kirgizishda qiyinchiliklar tug'ilsa)  
190000, Санкт-Петербург, пер. Антоненко, д. 8,  
тел. 8 (812) 576-20-19, *k-obr.spb.ru*
- **Комитет по социальной политике Санкт-Петербурга** (ijtimoiy yordam ko'rsatish)  
190000, Санкт-Петербург, пер. Антоненко, 6, *ksp@gov.spb.ru*,  
тел. 8 (812) 576-24-61

**Городской информационно-методический центр «Семья»**  
(muhojirlar va ularning oilalariga ijtimoiy yordam berish)  
**Адрес: 190068, ул. Садовая, дом 55-57, литер А тел. +7 (812) 417-31-51** <http://www.homekid.ru/spravochnik-po-rajonom.html> -  
Sankt-Peterburg rayonlaridagi oilalar va bolalar uchun ijtimoiy yordam markazlarining to'liq ro'yxati va aloqa telefonlari



• **Politsiya**

02 uy telefonlaridan, 102 yoki 112 mobil telefonlardan (politsiya xizmatchilari ustidan shikoya qilish uchun)

195197, г. Санкт-Петербург, ул. Жукова, д.7а

Navbatchining telefoni: 8 (812) 541-02-02

Ishonch telefoni: 8 (812) 573-21-81

• **Главное Следственное Управление Следственного комитета РФ по Санкт-Петербургу**

190000, Россия, Санкт-Петербург, Мойки Реки наб., 86–88

Тел. 8 (812) 571-00-40, 8 (812) 570-66-71, spb.sledcom.ru

• **Городской центр утерянных документов (стол находок)**

(pasportingiz yoki boshqa hujjatlaringiz yuqolgan taqdirda)

ул. Большая Монетная, 16, 8 (812) 336-51-09

• **Бюро регистрации несчастных случаев** (Sankt-Peterburg va Leningrad viloyatida topilgan yoki yo'qolgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar uchun)

Литейный пр., 31, 8 (812) 573-66-66

Ko'chada "Birinchi yordam" orqali olib ketilgan odamlar haqida so'rash uchun markazlashtirilgan ma'lumot xizmati (24 soat): 8 (812) 278-00-55

• **ЦВСИГ №1 ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области** (chet el fuqarolarini vaqtincha ushlab turish joyi):

Санкт-Петербург, Красное Село, Кингисеппское шоссе, 53А

8 (812) 749 90 29, 8 (812) 749 90 34, 8 (812) 417 29 48

электронная почта – suvsig-spb@mail.ru

**Elchixonalar va Konsullik bo'limlari**

**Qirg'izistonning Sankt-Peterburgdagi Faxriy konsulini qabul qilish xizmati**

191036, Санкт-Петербург, Невский пр., 132, оф. 16

Тел.: 8 (812) 717-00-27, Факс: 8 (812) 717-24-88

E-mail: Abdiev.cons.kg@mail.ru, Сайт: <http://kyrgyzembassy.ru>

**Tojikistonning Sankt-Peterburgdagi Boshki konsulligi**

192007, Санкт-Петербург, ул. Тамбовская, д. 10 литер А

Тел.: 8 (812) 490-47-46, +7 (967)349-29-44

E-mail: tajgencons.piter@mfa.tj Сайт: <http://tajembassy.ru>

**Ukrainaning Sankt-Peterburgdagi konsulligi**

191124, г.Санкт-Петербург, ул.Бонч-Бруевича, д.1»в»

Телефоны: 8 (812) 331-5165, 331-5166, 331-5169, 331-5163

e-mail: [secr@cons-ukr.ru](mailto:secr@cons-ukr.ru), Сайт: [www.cons-ukr.ru](http://www.cons-ukr.ru)

**Belarusning Sankt-Peterburgdagi Bosh konsulligi**

191124, Санкт-Петербург, ул.Бонч-Бруевича, 3а

Тел. 8 (812) 274-72-12, 275-81-30, Факс 8 (812) 273-41-64

E-mail: [russia.petersburg@mfa.gov.by](mailto:russia.petersburg@mfa.gov.by),

[st\\_petersburg@belembassy.org](mailto:st_petersburg@belembassy.org)

**Ozərbayjon Respublikasının Sankt-Peterburgdagi Bosh konsulligi**

191024, Санкт-Петербург, ул. 2-я Советская, д.27

Тел.: 8 (812) 717-38-90, Факс: +7 (812) 717-38-91

**Qozog'istonning Sankt-Peterburgdagi Bosh konsulligi**

Адрес: 191014, г.Санкт-Петербург, Виленский пер., д.15, лит. А

Тел.: 8 (812) 335-25-46, Факс: 8 (812) 335-25-47

E-mail: [kazconspb@mail.ru](mailto:kazconspb@mail.ru)

**Sankt-Peterburgda Armaniston Respublikasi Bosh konsulligi**

190000, Санкт-Петербург, ул. Декабристов, 22

Тел.: 8 (812) 571-72-36, Факс: 8 (812) 710-66-20

E-mail: [armcons@armcons.spb.ru](mailto:armcons@armcons.spb.ru)

**Sankt-Peterburgdagi ijtimoiy tashkilotlar**

- **БФ «ПСП-фонд (Sankt-Peterburgdagi muhojirlar va ularning oila a'zolari uchun bepul ijtimoiy va yuridik yordam)**

Ma'lumot uchun telefon: 8 (812) 337-57-85

Sayt: [psp-f.org](http://psp-f.org), [migrussia.ru](http://migrussia.ru)

Ijtimoiy tarmoqlarda: <https://vk.com/pspfond>

• **Информационно-консультационный центр Красного Креста (chet el fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslarga maslahat berish)**

ул. Красного Текстильщика, д. 15 (qabul qilish oynasi)

Tel.: 8 (800) 333-00-16

sayt: [spbredcross.org](http://spbredcross.org)

• **Общественная наблюдательная комиссия Санкт-Петербурга**

(politsiya qamoqqa olgan paytda, turmaxona yoki izolyatorda huquq buzilsa)

сайт: [onkspb.ru](http://onkspb.ru)

электронная почта: [mail@onkspb.ru](mailto:mail@onkspb.ru)

а/я 62, индекс 199004

Телефон секретаря ОНК: +7 (931) 352-06-35

• **СПб РОО «Дети Петербурга»** (muhojirlarning bolalariga rus tilini o'rganishda va maktabga joylashishda yordam)

Tel.: 8 911 773-77-87

sayt: [detipeterburga.ru](http://detipeterburga.ru)

**O'rta Osiyo mamalakatlarida joylashgan tashkilotlar**

**A) O'zbekiston Respublikasi**

**“Istiqbolli avlod” Toshkent shahar ijtimoiy-axborot markazi**

100015, Республика Узбекистан, город Ташкент,

Мирабадский район, ул. Катта Миробод, 4-ый проезд, Дом 22

Тел/факс: +998 71 254-12-87

Navbatchi telefoni: +998 95 143-94-94

E-mail: [iatashkent2014@gmail.com](mailto:iatashkent2014@gmail.com)

**B) Qizg'iziston Respublikasi**

**Qirg'iziston Respublikasi Hukumati qoshidagi Migratsiya xizmati**

Кыргызская Республика, г. Бишкек, ул. Раззакова 8\1,

[www.mz.gov.kg](http://www.mz.gov.kg)

Отдел Внешняя трудовая миграция

(0312) 300 232

Отдел ИРС

(0312) 301 117

Управление по работе с этническими кыргызами и переселенцами

(0312) 300 773

**Qirg'iziston Respublikasi Hukumati qoshidagi Davlat migratsiyasi xizmatining ma'lumot-maslahat markazi**

Кыргызская Республика, г. Бишкек, ул. Токтогула 237/ Молодая гвардия

(0312) 641 764

[www.oec.kg](http://www.oec.kg)

**Qirg'iziston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi**

Раззакова 59

+996 (312) 66-01-94, +996 (312) 66-39-74;

[www.mfa.gov.kg](http://www.mfa.gov.kg)

**Qirg'iziston Respublikasi ichki ishlar vazirligi**

Бишкек ул. Фрунзе 469,

+996 312 26 62 54

[www.mvd.kg](http://www.mvd.kg)

**“Qariyalar uchun resurs markazi” jamoat birlashmasi**

Кыргызская Республика, г. Бишкек, ул. Фрунзе, 462.

тел/факс: + 996 0312 98-65-53/52/51

E-mail: [kyrgyzstan.rce@gmail.com](mailto:kyrgyzstan.rce@gmail.com)

Сайт: [www.rce.kg](http://www.rce.kg)

**“Xalqaro himoya qilish uchun yordam markazi” jamoatchilik fondi**

Кыргызская Республика, г. Ош, ул. Мичурина 9.

тел: (+996) 3222 44-9-60, 44-0-69

E-mail: [center.sip@gmail.com](mailto:center.sip@gmail.com)

Сайт: [www.csip.kg](http://www.csip.kg)

## **V) Tojikiston Respublikasi**

### **«Inson huquqlari bo'yicha markaz» jamoat birlashmasi**

Главный офис

734000, Республика Таджикистан

г. Душанбе ул. Валамадзаде 8/1, кв.30

тел. (+992 37) 227-51-87, (+992 918) 67-96-06

E-mail: hrc.tajikistan@gmail.com

### **Isfara shaxridagi bo'limi**

735920, Республика Таджикистан,

Согдийская область, г. Исфара ул. Г. Б. Махкамова 83

Тел. (+992 3462) 2-56-86

E-mail: hrc.isfara@gmail.com

### **«G'amho'ri» jamoat birlashmasi**

Республика Таджикистан, Хатлонская область,

г. Курган-Тюбе, ул. Космонавтов, 42/46.

тел: (+992) 918 88-61-88

E-mail: bahodur9166@mail.ru

Автор-составитель: Якимов А.Н.

Редактор: Панич Б.Л.

Издание разработано БФ «ПСП-фонд».





**БФ «ПСР-ФОНД»**

---

тел. 8 (812) 337 57 85,  
e-mail: [bp@psp-f.org](mailto:bp@psp-f.org),  
[www.migrussia.ru](http://www.migrussia.ru), [www.psp-f.org](http://www.psp-f.org)